

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani
_____ prof. D.Shodmonqulova
«___» _____ 2012 y.

Mavzu: O'zbek tilidagi substantivasiya (otlashuv) xodisasi (boshlang'ich
sinf "O'qish kitobi" dagi matnlar misolida)

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

IV – bosqich “402” guruh
talabasi: Nurmatova SH.I.
Ilmiy rahbar: dosent M.Xamroyev.

Taqrizchi: _____

«Himoyaga tavsiya etilsin»
“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”
Kafedrasi mudiri, prof. Abdullayeva B.S

«___» _____ 2012

TOSHKENT – 2012

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI	3
1-BOB. OTLASHUV HODISASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT	6
1.1 O'zbek tilidagi otlashuv hodisasi haqida	6
II BOB. MUSTAQIL SO'ZLARNING OTLASHUVI	21
2.1 Sifat turkumidagi so'zlarning otlashuvi	22
2.2 Son turkumidagi so'zlarning otlashuvi	30
2.2.1 Miqdor sonlarning otlashuvi	30
2.2.2 Jamlovchi sonlarning otlashuvi.....	32
2.2.3 Dona sonlarning otlashuvi.....	32
2.2.4 Tartib sonlarning otlashuvi.....	32
2.3 Ravish turkumidagi so'zlarning otlashuvi	33
2.3.1 Miqdor ravishlarining otlashuvi.....	33
2.3.2 Payt ravishlarining otlashuvi.....	34
2.4 Olmosh turkumidagi so'zlarning otlashuvi.....	34
2.4.1 Ko'rsatish olmoshlarining otlashuvi	34
2.4.2 Belgiga nisbatan so'roq olmoshlarining otlashuvi.....	35
2.4.3 Belgilash olmoshlarining otlashuvi.....	35
III BOB. ALOHIDA GURUH SO'Z TURKUMLARIDAGI SO'ZLARNING OTLASHUVI	38
3.1 Modal so'zlarning otlashuvi.....	39
3.2 Undov so'zlarning otlashuvi	40
3.3 Taqlid so'zlarning otlashuvi.....	40
UMUMIY XULOSALAR.....	43
TAYANCH TUSHUNCHALAR.....	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	44

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'tkazilgan ulkan islohotlar muayyan o'zgarishlarga olib keldi. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimov «Har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma'naviy – ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari uning ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi»¹, deb yozadi. Ayniqsa, taraqqiyotning muhim omili sanaladigan ta'lim tizimida amalga oshirilgan yangiliklar Respublikamiz ta'limini yanada yuqori bir taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida bir necha bosqichni qamrab olgan uzluksiz ta'lim tizimiga asos solindi, Davlat ta'lim standartlari (DTS) qabul qilindi, ta'limning barcha soha va bosqichlari uchun yangi o'quv dasturlari, darsliklar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratildi, o'quvchilar bilimini baholashning yangi usullari, yangi tipdagi o'quv muassasalari amaliyotga joriy etildi. Eng muhimi, boshlang'ich ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Buni boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, 1-sinf o'quvchilariga 12 nomdagi o'quv qurollari hamda darsliklarning Prezident sovg'asi sifatida berilishi, yuqori sinf o'quvchilari uchun esa darsliklarning aylanma jamg'armasining tashkil qilinishi singari olib borilgan amaliy ishlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda elementar o'qish va yozish, hisoblash, tabiat bilan yaqindan tanishish, o'zligini anglash kabi ijtimoiy hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo'ladilar. «Kelajak yuksak intellektual salohiyat, bilim va kuchga ega bo'lgan yoshlarniki, millatnikidir»², deb ta'kidlaydi prezident I.A. Karimov. Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlatlari yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan, kerak bo'lsa, ulardan o'z ustunligi bilan ajralib turishini ta'minlashning yagona yo'li ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Ma'lumki, har qanday ta'lim muayyan ijtimoiy buyurtma asosiga quriladi hamda shu buyurtmadan kelib chiqqan holda uning mazmuni, maqsad va vazifalari belgilanadi. Mamlakatimizda umuman ta'limga, jumladan, boshlang'ich sinf ona tili ta'limiga bo'lgan e'tiborni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Hukumat o'z fuqarolari mushtarak manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'limining har bir alohida olingan bosqichida o'qitiladigan ona tili predmeti zimmasiga qator didaktik, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni yuklaydi. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmunining ana shunday asosiy maqsadlari sirasiga o'quvchilar nutqini o'stirish, dunyoqarashini boyitish, milliy istiqlol g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, mustaqil va ijodiy ishlash, milliy g'urur va

¹ I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» T. Ma'naviyat. 2008. 84, 105-106 b.b.

² Boshlang'ich sinflar uchun yangi tahrirdagi DTS. T., 2005. 11-bet

faxr-iftixor kabi xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini e'tirof etish zarur.

Ona tili ta'lim sohasi boshlang'ich sinf bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi bois unga ajratilgan soatlar umumiy dars soatlarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Yangi tahrirdagi DTS tushuntirish xatida «Ona tili ta'lim sohasiga nafaqat o'quv predmeti, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash»³ lozimligi uqtiriladi. Zero tabiat va jamiyat haqidagi mavjud barcha fan asoslari bevosita til orqali o'rganiladi va o'zlashtiriladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar to'rtta ta'lim sohasi yuzasidan bilim olishlari nazarda tutilgan bo'lib, ular ona tili, matematika, tabiat va inson hamda jamiyat ta'lim sohalarini o'z ichiga oladi.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengayganini, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

“Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar, til va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim⁴”.

Har bir millatning, xalqning ajdodlaridan meros bo'lib o'tuvchi vositalaridan biri — bu uning milliy tili. Dunyodagi har bitta mamlakat o'z ona tilisiga egadir. Bu ularning yuksak ma'naviy merosi, boyliklaridan biri hisoblanadi. Odamlarning bir-biri bilan bo'ladigan muloqoti til orqali amalga oshadi. Shuning uchun hech bir mamlakat, jamiyat tilsiz taraqqiy eta olmaydi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning “Ona tiliga muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz” degan fikrlari orqali tilning Vatan taraqqiyoti yo'lida, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda, ota-bobolarimizdan qolgan buyuk ne'mat sifatida ahamiyati juda katta ekanligini aytish mumkin.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda “Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotudur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur⁵”.

Til fani asoslarini o'rgatish, uning leksik, grammatik xususiyatlarini o'rgatish asosida o'quvchilarning egallayotgan bilimi, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ona

³ Karimov I., Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008, 37-b.

⁴ Karimov I., O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, T., “O'zbekiston”, 1995, 152-b.

⁵ Karimov I., Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuchdir, T., “Ma'naviyat”, 2008, 83-b.

tilini mukammal o'zlashtirish boshqa turdosh tabiat va jamiyat to'g'risidagi fan asoslarini o'zlashtirishning bosh omili hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini ona tili darsliklariga kiritilgan, natijada bir so'z turkumining gapda boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi va sintaktik yo'l bilan boshqa so'z turkumining vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlashga o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning mavjudligiga, ya'ni otlashuv hodisasiga qaratmoqchimiz.

O'quvchilarning, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikirlash qobiliyatini yuksaltirishda, ona tilining boyligini yana bir bor ko'rsatishda, mamlakatimizning yetuk barkamol shaxsi bo'lib yetishida tilning o'rni beqiyosligini namoyish qilishdir. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlarda otlashgan so'zlarning morfologik-sintaktik jihatdan tahlil qilishi shu darsliklar bo'yicha dars beruvchi o'qituvchilarga matnlar mazmunini kichik yoshdagi o'quvchilarga yetkazishda katta yordam beradi.

Ana shular mavzuning **dolzarbligini** belgilaydi.

Tadqiqot ishining maqsadlari. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dan to'plangan materialga asoslangan holda matnlarda uchragan otlashgan so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini, turlarini, qaysi so'z turkumlari otlashib kelishi, ular gapda qanday sintaktik vazifada kelishi, qaysi qo'shimchalarni olishi haqida ma'lumot berish ishdan ko'zlangan **maqsad** hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusini yoritish davomida bajariladigan vazifalar:

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlarda uchragan otlashgan so'zlarni yoritishdan ko'zlangan maqsadga erishishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali o'zbek tilidagi otlashuv hodisasi haqidagi umumiy ma'lumot berish.

2. Otlashgan so'zlarning so'z turkumi jihatdan turlarini aniqlab chiqish.

3. Otlashgan so'zlarning morfologik belgilarini aniqlash.

4. Otlashgan so'zlarning sintaktik belgilarini aniqlash.

5. Otlashgan so'zlarning kelib chiqish omillarini aniqlash.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar birinchi marta otlashgan so'zlarni aniqlash maqsadida morfologik-sintaktik jihatdan tahlil qilindi,

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosini ona tili bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, tilshunos olimlarning ilmiy asarlari tashkil etadi.

Tadqiqot obyektlari bo'lib boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari sifatida tavsifiy tahlil, qiyoslash metodlari olindi.

Tadqiqot materiallari bo'lib boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi mavzu bo'yicha olingan misollar xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tadqiqot yakunida chiqarilgan xulosalar boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"lariga matnlar tanlashda mezon sifatida xizmat qilishi mumkin;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsliklardagi matnlarni chuqurroq tushuntirishga va ularni kichik yoshdagi o'quvchilarga tushuntirishda yordam beradi.

1-BOB. OTLASHUV HODISASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1 O'zbek tilidagi otlashuv hodisasi haqida

Bir so'z turkumining gapda ot so'z turkumi vazifasida kelishi va sintaktik yo'l bilan otning vazifasini bajarishi otlashuv hodisasi deyiladi, ya'ni otlashuv hodisasi ma'lum turkumdagi so'zlarning ot o'rnida kelib, uning vazifasini bajarib kelishi orqali namoyon bo'ladigan hodisadir.

“ Boshqa turkumdagi so'zning otga ko'chishi **otlashish** deyiladi: Kasalning tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan keladi (Maqol).

“Substantivatsiya” so'zi lotincha *homen substantivum* – ot, ya'ni, otlashishdir.”⁶

Otlashuvning **to'rtta** muhim belgisi bor:

1. Otlashgan so'z bog'langan ot tushib qolgan bo'ladi: Yaxshi (odam) oshini yer, yomon (odam) boshini.
2. Otlashgan so'z otning shakl yasovchi qo'shimchasini oladi: Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.
3. Otning so'rog'iga javob bo'lishi mumkin: Intilganga (kimga?) tole yor.
4. Otning sintaktik vazifasini bajaradi: O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar.

Ma'lum bir turkumga mansub so'zning atash ma'nosi kuchsizlanib, boshqa turkumga xos ma'noviy va sintaktik belgiga ega bo'lishi so'z turkumining ko'chishidir. O'zbek tilida boshqa turkumga ko'chgan yoki ko'chishga shay turgan so'z talay bo'lib, bu so'zning qaysi turkumga kirishini aniqlash murakkablik tug'diradi. Shuning uchun: a) vaqtincha boshqa turkum vazifasini bajarish; b) mutlaqo boshqa turkumga ko'chishi.

Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma mahno ifodalanadi. Masalan, *Birni ko'rib fikr qil, mingni ko'rib shukur qil* gapida son turkumiga mansub *bir* so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi, nutqiy hodisa.

Biz yuqorida otlashuv hodisasi ma'lum turkumdagi so'zlarning ot turkumidagi so'zlar o'rnida kelib, uning vazifasini bajarib kelishi orqali yuz beradigan hodisa ekanligini ko'rib chiqdik. Bu hodisani mustaqil so'z turkumlaridan sifat, son, olmosh, ravish, fe'ning vazifa shakllaridan sifatdosh va ravishdosh, hamda yordamchi so'zlar, alohida guruh so'zlari tarkibida uchratish mumkin.

Otga ko'chish hodisasi esa bir turkumdagi so'zning til taraqqiyoti natijasida boshqa turkumga ko'chgan so'zlari nazarda tutiladi. Bunda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Otga ko'chish hodisasi mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va alohida guruh so'zlarida ham ko'rish mumkin.

⁶ Azim Hojiev “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati” Toshkent “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 1999-yil .

B.Mengliev, O'. Xoliyorovlarning "O'zbek tilidan universal qo'llanma"sida otga ko'chgan bir qator so'zlarga misollar keltirilgan.

"Otga ko'chgan turkumlar:

- 1) sifat: **yigit, qiz, o'g'il, qari, xotin, ko'r, issiq, sovuq** (issiq sovug'idan xabar olmoq), **achchiq chuchuk, yosh, yoshu qari, ko'k** (osmon, dollar) ("siyoh" so'zi ham aslida sifatdan ko'chgan);
- 2) fe'l: **yel, shish, yuq, ich, ko'ch, qir, chaqirdi, chorladi, ko'rdi, keldi- ketdi, qo'ydi- chiqdi, oldi-berdi, oldi- sotdi, mindi-mindi** (bolalar o'yinining nomi), **bordi-keldi, ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur, oldi-qochdi** (gap), **kuydi-pishdi** (ayol), **iliguzildi** (vaqt), **ichakuzdi** (hangomalar), **supraqoqdi** (farzand, ya'ni so'nggi farzand) kabi sodda, qo'shma, juft va takroriy fe'llar;
- 3) fe'lining harakat nomi shakli: **kengash, kurash, o'qish, yozish, o'tmish, qilmish, qidiruv, o'ynash, saylov, ishlov, qurshov, qatnov, qistov, tanlov, o'zgarish, tintuv, maqto'v, tergov, to'lov, o'quv, chanqov, qarov, to'ntarish, burilish** ("o'zgarish" ma'nosida), **yozuv- chizuv, yurish- turish, borish-kelish, bosar- tusar, kiraverish;**
- 4) fe'lining sifatdosh shakli: **o'qituvchi, bog'lovchi, kuzatuvchi;**
- 5) son: **uch, yetti, yigirma, qirq, to'qqiz-to'qqiz;**
- 6) taqlid: **qu-qu** (qush), **dudut** (yengil mashina), **popop** (asli: pop-pop, tikuv mashinasi), **tu-tu** (tovuq), **pat-pat** (mototsikl), **shaq-shaq** (qushning nomi)".⁷

Mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'zlar va alohida guruh so'zlarning miqdor jihatdan otlashuvining soni adabiyotlarda, darslik va qo'llanmalarda turli xil bayon etilgan. Ularning miqdor jihatdan sonini tahlil qilamiz. **U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili"** (**Leksikologiya, fonetika, morfologiya**) o'quv qo'llanmasida so'z turkumlarining miqdor jihatdan to'rttasining otlashuvi haqida so'z yuritilgan. Jumladan, mustaqil so'z turkumlaridan sifat, son, sifatdosh va ravishlarning otlashuvi haqida so'z yuritilgan. Yordamchi so'z turkumlari va alohida guruh so'zlarning otlashuvi hodisasi haqida ma'lumotlar berilmagan:

"Sifatning otlashuvi uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir. Bunda sifat vaqtincha ot turkumida bo'ladi. Sifatning otlashuvi uchun u aniqlab kelgan ot tushirib qoldirilishi, sifat esa uning ma'nosini anglatishi, o'sha otning shaklan belgilarini qabul qilishi hamda sintaktik vazifasini bajarishi shart. *Yaxshi, qizil* kabi sifatlardan belgi ma'nosi anglashiladi, *yaxshiga, kattaga* deyilganda esa shu belgiga ega bo'lgan shaxs - predmet ma'nosi ham anglashiladi, so'zning leksik ma'nosi konkretlashadi, unga aniqlik kiritiladi. M: *Shu-shu bo'ldi, Hojining ismi bir*

⁷ B.Mengliev, O'.Xoliyorov "O'zbek tilidan universal qo'llanma" Toshkent "Fan" nashriyoti 2008-yil

umr katta-kichik oldida dutorchi so'qir.(G'.G') Eskilarini yamaguncha , yangilarini tezroq yasaymiz.(S.B)

Biz yuqorida oddiy darajadagi sifatlarning otlashuvini ko'rib chiqdik. Shu o'rinda sifat darajalaridan qiyosiy darajadagi sifatning ham otlashuvini aynan shu kitobda ko'rishimiz mumkin.

Sifat ba'zan qiyosiy daraja shaklida ham otlashib keladi: *Askarlar esa ularning orasidan chaqqonroqlarini ko'z ostiga olib qo'yganday bo'lar edi.*

O'zbek tilida sonlarning xususiyatlaridan biri otlashuvdir.

Son otlashganda va miqdor tushunchasini anglatganda, kelishik, egalik qo'shimchalarini qabul qilib turlanadi va ot bajargan vazifalarda keladi: *O'n besh uchga qoldiqsiz bo'linadi.*

Sonning ma'no jihatidan turlaridan sanoq son va tartib sonlarning otlashuvi xususida fikr yuritilgan.

Sanoq sonlar bog'langan ot tushib qolganda, ular otlashadi. M: *Uchovi mehmonxonada o'tirib, to'y rejasini tuzishdi.*

Tartib son ba'zan otlashganda, ot shakllarini qabul qiladi va otlashadi. M: *O'ninchini tamomlash uchun yana bir yil o'qish kerak edi.*

Sifatdosh belgilaridan yana biri otlashishidir. Bu vaqtda ot singari kelishik, egalik qo'shimchalarini qabul qiladi va shunga mos vazifada keladi. M: *Maqtanganning uyini , kerilganning to'yini ko'r.*

Sifatdoshga xos belgilar uning predikativlik (kesimlik), atributivlik (aniqlovchilik) va substantivlik pozitsiyalarda qo'llanishi bilan bog'langan.

“Substantivatsiya” so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “otlashuv” degan ma'noni anglatadi. Sifatdosh substantivlik holatida kelishik va egalik qo'shimchasini olib, harakatning bajarilish belgisini, paytini, sabab va maqsadini bildiradi. Substantivlik holati aslida sifatdashning harakat qurolini , harakatning passiv natijasi ma'nosini anglatishi bilan, ya'ni sifatdoshning fe'llik, sifatlik va otlik belgilari bilan bog'langan. Bu vaqtda sifatdosh otlashmaydi, u aniqlab kelgan ot ham bo'lmaydi. Sifatdosh ma'no jihatidan harakat nomiga yaqinlashadi. M: *Chinorning gapirganini eshitgan odamning umri boqiy bo'larmish.*

Sifatdosh harakatning tushib qolgan bajaruvchisi - subyekti, harakat qaratilgan predmet va qaratqich o'rnida kelganda otlashadi. Bu vaqtda sifatdosh kelishik, egalik va grammatik son qo'shimchalari bilan kelib otlashadi. M: *Hayotni sevganlar, baxtni sevganlar do'stlik qo'shig'ini kuylashi kerak.*

Ravish predmetlik belgisida bo'lib otga bog'lansa, otlashib kelishi ham mumkin. Bunday vaqtda ravishlar otga xos kelishik, egalik qo'shimchalarini qabul qilib otlashadi. M: *Ko'pning duosini ol.*

Bu qo'llanmada mustaqil so'zlardan olmoshlarning otlashuvi hamda yordamchi va alohida guruh so'zlarning otlashuvi haqida fikrlar bildirilmagan.⁸

I.Azimov, M.Saparniyozovalarning “Ona tilidan ma’ruzalar va testlar majmuasi”da mustaqil so'zlardan sifat, son, sifatdash va ravishdan tashqari olmoshlarning otlashuvi xususida ma'lumotlar bor.

“**Sifat** bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi va otning so'rog'iga, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalari, gapdagi vazifasi sifatga yuklanadi va sifat otlashadi. M: Yaxshiga yondash, yomondan qoch.

Ba'zi sifatlar shaxs otlari sifatida ot turkumiga ko'chishi mumkin: *erkak, ayol, go'dak, yosh, chol, kampir, kasal, bemor*. Mazkur so'zlar ot turkumiga mansubdir.

Sonlar otlashish xususiyatiga ega. M: *Birni kessang o'nni ek*. Sonlar otlashganda yoki mavhum miqdorni anglatganda turlovchi qo'shimchalari bilan qo'llanadi. M: Ikkini ikkiga qo'shsa to'rt bo'ladi.

Olmoshlarning ma'no turlaridan ko'rsatish olmoshi sifat o'rnida qo'llanuvchi olmosh sanalgani sababli otlashuv xususiyatiga ega: M: *Anavini olib keting. Shuni bering.*”⁹

Bu manbada yordamchi va alohida guruh so'zlarning otlashuvi haqida ma'lumotlar berilmagan.

B. Mengliev, O'. Xoliyorovlarning “ O'zbek tilidan universal qo'llanma”sida sifatdash, sifat, son, ravishlarning otlashuvi hamda alohida guruh so'zlardan modal, undov va taqlid so'zlarning otlashuvi xususida fikrlar mavjud. **”Sifatdashning otlashuvi.** Otga bog'lanuvchi boshqa so'z kabi sifatdash ham otlashib, otning shakl yasovchisi va sintaktik vazifasini oladi. *Ko'rgan* (sifatdash,aniqlovchi) *kishilar* (ot, bosh kelishikda, ko'plikda, ega) *gapirsin*.

Otlashganda:

1. Ega: *Qimirlagan qir oshar*.
2. Qaratqich aniqlovchi: *O'qiganning tili uzun bo'ladi*.
3. To'ldiruvchi: *Aytadiganingni ayt*.
4. Kesim: *Kambag'alning ko'chgani - talangani*.
5. Hol: *Ko'rgan(payt)da gapiradi*.
6. Undalma: *Eshitganlar, qolmanglar*.

Sifatning otlashuvi. Ot bilan ifodalangan bo'lakka sifatlovchi –aniqlovchi bo'la oladigan har qanday so'z otlashadi. Sifat otlashganda u birikkan ot tushib qolib, vazifasi va grammatik shaklini sifat egallaydi. M: Yomon kishidan yaxshilik

⁸ U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Rahmatullaev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti 1975-yil

⁹ I.Azimov, M.Saparniyozova “Ona tilidan maruzalar va testlar majmuasi” Toshkent 2008-yil

kutma gapida yomon sifati oddiy daraja, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida, kishi oti esa chiqish kelishigida, birgalikda, to'ldiruvchi vazifasida.

Otning har qanday grammatik shaklini olgan so'z otlashgan bo'lavermaydi. Otlashish uchun so'z bog'langan ot tushirilishi ham lozim. Buni aniqlash uchun tushirilgan otni tiklab ko'rish kerak. Lekin olmaning qizilini yeyman gapida ot tushirilmaganligi tufayli uni tiklab bo'lmaydi. Olmaning qizil olmasini yeyman kabi. Bunda sifat otlashmagan

Sifat otlashgan va otlashmagan holda barcha gap bo'lagi vazifasida keladi.

Otlashmaganda : 1.Sifatlovchi-aniqlovchi: Odobli bola yelga manzur.
2. Ravish holi: *U qiziq kular ekan.*

3. Ot-kesim: *Devor oq.*

Otlashganda: 1.Ega: *Yaxshi oshini yer, yomon boshini.*

2. Qaratqich- aniqlovchi: *Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir.*

3. To'ldiruvchi: *Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.*

4. Undalma: *Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.*

Sonning otlashuvi. Otlashish (*Birinchi kishini chaqir- birinchisini chiqir*) va otga ko'chish (yetti, qirq, to'qqiz-to'qqiz kabi marosim otlari) xususiyatiga ega. Bunda otga xos lug'aviy va sintaktik shaklni hamda uning sintaktik vazifasini qabul qiladi: O'ninchisini , o'ninchigacha. Otga xos shakl yasovchi qo'shimcha sonning hamma turiga ham qo'shilavermaydi: o'nlar(ni), uchala(ga) kabi.

Son otlashmaganda va otlashgan holda turli gap bo'lagi bo'lib keladi.

Otlashmaganda: Sifatlovchi-aniqlovchi: 1.*Ikkita chiroyli qiz kirib kelishdi.*

2. Daraja-miqdor holi: *Samarqandni 4-5 marta ko'rganman.*

3. Ot-kesim: *Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta.*

Otlashganda:1.Ega: *Dutorimning tori ikkidir, biri dilkash, biri dilxush.*

2. Vositali to'ldiruvchi: *Ikki uchga qoldiqsiz bo'linmaydi.*

Jamlovchi –ov , -ala shakligina otlashmasdan kelishik va egalik shaklini oladi: *uchovini, to'rtalasiga.*

Ravish otlashsa, ot turkumiga xos vazifani bajaradi.

Otlashmaganda: 1. Hol: *Yomg'ir birdan tindi.*

2. Sifatlovchi-aniqlovchi: *Uzoq yo'l qiynab qo'ymaydimi?*

3. Ot-kesim: *Bemaslahat qilingan ishning pushaymoni ko'p.*

Otlashganda: 1. Ega: *Ko‘p nima desa o‘sha bo‘ladi.*

2. To‘ldiruvchi: *Ko‘pni yomonlagan ko‘muvsiz qolar.*

3. Qaratqich-aniqlovchi: *Ko‘pning duosi -ko‘l.*

Biz yuqorida so‘z turkumlarida yag‘ni mustaqil so‘zlarda hamda alohida guruh so‘zlardagi otlashuv hodisasi haqidagi mag‘lumotlarni ko‘rib chiqdik. Xuddi mustaqil so‘z turkumlari kabi mustaqil bo‘lmagan so‘zlar ham otlashuv xususiyatiga ega ekan.

“Alohida guruh so‘zlardan modal so‘zlarning ayrimlarining otlashuvi ya‘ni, **modallar** otlashsa: *bor, yo‘q, kerak* so‘zi otning sintaktik vazifasini bajaradi: M: *Bor maqtansa topilar, yo‘q maqtansa chopilar.*

Undovlar otlashsa otning sintaktik vazifasini bajaradi: M: *Ortiqcha oh-voh(ega) o‘rinsiz. Dod-voydan (to‘ldiruvchi) nima foyda?*

Taqlidlar otlashsa nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Otlashganda: 1. Ega: *Shivir-shivir eshitildi.*

2. Qaratqich-aniqlovchi: *Qiy-chuvning boisi nima ekan-a?*

3. To‘ldiruvchi: *Etigining g‘archini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.”*

M.Mirzayev, S.Usmonov, I. Rasulovlarning ”O‘zbek tili” darsligida mustaqil so‘z turkumlaridan sifat, olmosh, sifatdash va alohida so‘z turkumlaridan undovlar, hamda taqlid so‘zlar haqida ma‘lumotlar berilgan.

” **Sifat** otlashganda gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqich vazifalarini bajaradi: CHindan ham, onasi aytganday, o‘nlarcha tanish-bilishlar, *yaqinlar*, begonalar kelishdi. Bu *sho‘xlar bilan* ovunib o‘tiribman. Bolam, mana bu ikkita *kichigingning* tiliga sira tushunmayman.

Ko‘rsatish olmoshlari ko‘pincha sifatlovchi vazifasida keladi. Ammo ular ot bajaradigan vazifada kelsa, son egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib otlashishi mumkin: Anavini sizlar yasadinglarmi? deb so‘radi akam biz tomonga qarab.

Hozirgi zamon **sifatdoshining** -yotgan orqali yasalgan shakli tuslanmaydi, ammo egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: *yozayotganimga, yozayotganingda* kabi; -vchi(-uvchi) bilan yasalgan shakli esa tuslanadi: *ishlovchiman, ishlovchisan* kabi; sifatdashning bu turi otlashishishga juda ham moyildir: *o‘quvchi, yozuvchi, to‘quvchi.* Ammo ular otlashmagan holda ham ishlatiladi. M: *A‘lo o‘quvchi qizning axloqi ham soz bo‘lar.*

Sifatdash odatda turlanmaydi. Sifatdoshlarga quyidagi hollarda kelishik qo‘shimchalari qo‘llanishi mumkin:

1. Sifatdash otlashganda: *Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinadi.(Maqol.)* Bu gaplarda sifatdash tomonidan aniqlangan otlar

(kishi, kishiga) tushib qolganligi uchun sifatdosh otlashadi va kelishik qo'shimchasini oladi.

2. Sifatdosh otlashmaganda o'rin-payt kelishiklari qo'shimchalarni olishi mumkin. Bunda u asosan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Goh u xafa bo'lganda, ko'nglini xushlarsan.

Miqdor va daraja ravishlar otlashganda to'ldiruvchi va qaratqich vazifasini bajarishi mumkin. M: *Ko'pdan quyon qochib qutilmas*

Mustaqil bo'lmagan so'zlardan undovlar otlashuvida ular ham gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin: 1. Ega vazifasida: Shu dam qulog'iga qal'a tomonidan eshitilar zaif **oh**, faryod birdan. 2. Kesim vazifasida: *Orqada qolganlarning holiga voy*.

Taqlid so'z otlashganda ega, to'ldiruvchi va qaratqich vazifasida ham kelishi mumkin: Ega vazifasida: Aeroplaning o'zi ko'rinmas, ammo to'xtamay tushayotgan bombalarning gumbur- gumburi hamma vaqt eshilib turardi Bu darslikda mustaqil bo'lgan so'zlardan son so'z turkumi va alohida so'z turkumlaridan modal so'zlarning otlashuvi haqida malumotlar berilmagan."¹⁰

SH.SHoabdurahmonov, M.Asqarova, A Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida mustaqil so'z turkumlaridan sifat, son, olmosh va sifatdoshlarning otlashuvi haqida so'z borgan.

"Sifatlar gapda ot o'rnida qo'llanishi mumkin. Lekin bunda sifat butunlay otga aylanmasdi. Bunday vazifada qo'llanish malum gapdagina, nutq protsessidagina bo'ladi. Sifatlar otlashganda otga xos ko'plik, egalik qo'shimchalarini qabul qiladi va gapda otga xos barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi: **Yomonning yaxshisi** bo'lguncha, **yaxshining yomoni** bo'l. **Yaxshi** topib gapirar, **yomon** qopib gapirar. Mosh rang duxoba do'ppili to'qqiz o'n yashar bola bolalarning eng **kattasi** edi.

Sonlar predmet bilan bog'lanib, uning belgisini ko'rsatganda, gapda aniqllovchi bo'lib keladi. Sonlar aniq mano anglatganda, ko'pincha aniqlanmish ot tushib qoladi. Son substantivlashib gapda otlar bajaradigan sintaktik vazivalarni bajaradi: Qaysi mahalladan bo'lasan? So'raydi biri ikkinchisidan.

Sonlarning otlashishida bazi o'ziga xos qonuniyatlar bor. M, -ta+ dan qo'shimchasi bilan shakllangan sonlar egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olmaydi. SHuning uchun ular gapda ot vazifasida kelmaydi.

Egalik qo'shimchasi otlashishi mumkin bo'lgan barcha sonlarga qo'shiladi.

Egalik qo'shimchasining 1-shaxs birlik shakli otlashgan sonlarga deyarli qo'shilmaydi (*ikkita, uchalam* deb ishlatilmaydi).

¹⁰ M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov "O'zbek tili" Toshkent 1978-yil.

Sonlar otlashganda, aniqlanmish ot sonidan oldin kelishi mumkin: *to'rtta kitob oldim* shakli *kitobdan to'rtta oldim* deb qo'llanadi.

O'zbek tilida ayrim sanoq sonlar egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olmasdan otga ko'chgan. Ularni otlashish hodisasiga mansub deb bo'lmaydi. Otga ko'chgan bunday so'zlar bazi marosimlar nomini yoki faslga oid vaqtlarning nomini ifodalaydi: Kampirning **yettisi** o'tgandan keyin amakim dadamga uchrabdi. Amakim shu yotganicha Sarvinisoning **yettisiga** ham, **yigirmasiga** ham turolmadi. Sarvinisoning **qirqi** o'tganidan keyin Azim duduq yo'qolib ketdi.(A.Q)

Ayrim so'roq va belgilash olmoshlarning otlashuvi haqida fikrlar mavjud.

Qanday so'roq olmoshi otlashganda boshqa bo'laklar vazifasida ham kela oladi: Qurilishga qanday odamlarni yuboraylik? Qanday o'rgatishdi? Sog'ligi qanday?

Qaysi olmoshiga hozirgi o'zbek tilida egalik qo'shimchasi qotib qolgan bo'lib, III shaxs shakllarida yana -si, -lari qo'shimchalari qo'shib ishlatiladi: qaysisi, qaysilari, bazan bu so'z otlashib qaysinisi shaklida ham ishlatiladi. *Qaysi* olmoshi sifat xarakteriga ega bo'lgani uchun otlashgandagina egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi.

Hamma olmoshi aniqlovchi vazifasida kelganda otlashib aniqlanmish vazifasida, aniqlovchi esa o'rin almashib qarvtqichli aniqlovchi vazifasida keladi. Bu xildagi almashish bilan mano o'zgarmaydi: **Hamma** qizlar shu yerda. Qizlarning **hammasi** shu yerda.

Barcha olmoshi otlashib, otlarga xos egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi va gapda otlarga xos vazifada keladi: Qalandarov **barchaga** birday bo'lgan emas. **Barchamiz** birga ishlab, maqsadimizga yetaylik.

Sifatdosh otlashganda otlarga xos sintaktik vazifalarni bajaradi.”¹¹

Mustaqil bo'lmagan so'zlarning otlashuvi haqidagi malumotlar bu darslikda aks ettirilmagan.

R.Ikromova, A.Azizova, D. Muhamedovalarning “O'zbek tili” darsligida mustaqil so'z turkumlaridan sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish va alohida so'z turkumlaridan undov va taqlid so'zlarning otlashuvi haqida so'z yuritilgan.

“**Sifatlar** otlashishi mumkin. Otlashgan sifatlar ot singari egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega: Hayotda eng ulug'i, **eng azizi**-inson! To'ldiruvchi : Bizning oramizda ishonchsizlarga o'rin yo'q! Qaratuvchi: **Yaxshining** so'zi qaymoq, **yomonning** so'zi to'qmoq. vazifalarini bajaradi.

Son otlashganda, ot kabi kelishik qo'shimchalarini oladi, gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajaradi.M: **Birni** kessang, **o'nni** ek.

¹¹ SH.SHOabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev, I.Rasulov, X.Doniyorov “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti 1980-yil

Olmoshlarning son yoki ravishga ishora qiluvchilari otlashish xususiyatiga ega. Bunday holda ular ot singari turlana oladi va gapda ega, kesim, o‘rin holi, payt holi vazifasini bajaradi. M: *Qiziq: uning qayerga, kimga, qaysi tomonga qarayotganini bilib bo‘lmasdi. O‘shanda eng noyob gullarni saralab bizga hadya qilgani hyech qachon esimdan chiqmaydi.* Ko‘rinadiki, olmoshning predmet, belgi, miqdor kabilarni ko‘rsatish, ishora qilish orqali anglatishi shartli, noaniq va umumiydir. Shuning uchun ham bazan aynan bir olmosh bir o‘rinda predmetga, boshqa bir o‘rinda belgiga ishora qilishi mumkin: Bu - paxtamizning boshlig‘i, parlamovchi Rajab aka. Bu so‘z hyech qaerda O‘zbekistondagiday jaranglab eshitilmasa kerak.

Keltirilgan misollarning birinchisida bu olmoshi shaxs oti “Rajab aka” o‘rnida , ikkinchisida predmet oti ”paxtaga” o‘rnida qo‘llangan.

Ko‘rsatish olmoshlari odatda kelishiklar bilan turlanmaydi, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini olmaydi, shuning uchun ular gapda ko‘pincha sifatlovchi vazifasini bajaradi. Ammo ular otlashsa , son, egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: shu shular, shularning, shularing, bu bularingiz, bunisi kabi.

Belgi va miqdor haqida so‘roq bildiruvchi olmoshlar otlashish xususiyatiga ega.

Ko‘rsatish olmoshlari odatda kelishiklar bilan turlanmaydi, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini olmaydi, shuning uchun ular gapda ko‘pincha sifatlovchi vazifasini bajaradi. Ammo ular otlashsa, son, egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: *shu, shular, shularning, shularing, bu, bularingiz, bunisi* kabi.

Siftdosh otlashganda, otga xos egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qiladi. M: *Yo‘lni **bilgan** qoqilmaydi.*

Miqdor ravishlari otlashib, egalik, kelishik, son qo‘shimchalarini olishi va gapda to‘ldiruvchi, qaratuvchi, ega vazifasini bajarishi mumkin. M, Bir piyola choy bahonasida **ko‘plar** bilan miriqib gaplashib oldik.

Mustaqil bo‘lmagan so‘zlardan undov va taqlid so‘zlarning otlashuvi xususida fikrlar mavjud.

Undovlar otlashishi mumkin, bunday holda ular egalik, kelishik, son qo‘shimchalarini qabul qiladi va gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratuvchi vazifasida keladi. M: *Layli va Shirinning ohi, qadimiy shashmaqomning hazin mungi singgan Nigoraning qalbidan joy olgan.*

Taqlid so‘z otlashganda, egalik, kelishik va son qo‘shimchalari olishi, ko‘makchilar bilan qo‘llanishi mumkin. M: Sport zalidan bolalarning qiyqiriqlari, toshlarning shaq-shuqi , koptoklarning do‘p –do‘p eshitilardi. Birdan chuvur-chuvur ko‘tarildi.”¹²

¹² R.Ikromova, A.Azizova, D.Muhamedova “O‘zbek tili” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1983-yil.

Maqsuda Sodiqovanning "Hozirgi o'zbek tilida sifat" 1974-yilgi qo'llanmasida sifatning otlashuvi xususida fikrlar bor.

"Sifatning otlashuvi - substantivatsiya.

Sifat turkumidagi so'zlar o'zni bilan ot turkumiga o'tib, otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yani bunda sifat belgilikni emas, predmetlikni ifodalaydi. Bunday hodisa otning manodan kengaytirishga va boyitishga katta hissa qo'shadi, lekin sifat butunlay ot turkumiga o'tib ketmaydi.

Sifat quyidagi hollarda otga ko'chadi: sifat aniqlab kelgan predmet-anislangan (sifatlovchi) tushib qolganda, yani sifatlangan tushib qolishi sifatlovchini otga ko'chiradi. Sifatlovchi gapda sifatlangan vazifasini, manodan va grammatik shakllarini o'ziga oladi. Bunday holda anislangan aytishga ehtiyoj bo'lmaydi, natijada otlashish hodisasi yuz beradi.

Bir so'z turkumining gapda boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi sintaktik yo'l bilan boshqa turkumning vazifasini bajarishi mumkin. Lekin bu hodisa bir so'zning bir turkumdan ikkinchi turkumga tamoman ko'chib ketishi sanalmaydi, balki biror so'z boshqa turkumdagi so'zning vazifasini bajarib kelganda, keyingi so'zning semantik va grammatik xususiyatlariga ega bo'ladi.

Substantivatsiya hodisasi ko'pincha: a) maqol va matallarda uchraydi. M: *Ko'r tutganini qo'ymas, kar eshitganini.*

B) kishi yoki hayvonlarning tabiiy holatlarini (nuqson, kamchiliklarini) bildiruvchi sifatlar anislangansiz, ot tarzida qo'llanadi. M: sariq, pakana, cho'loq, ko'r. Bu so'zlar bazan kishi nomlariga ham qo'shib aytiladi: Bektemir bu guruh ichida elatlaridan Safar cho'tir bilan Ali tajangni ko'rdi.

V) kishi ismlari otlashgan sifatlardan bo'lishi mumkin. Go'zal, Turg'un. Bunday ismlar -xon,-jon, -voy,-oy,-nisa kabi qo'shimcha olgan holda ham qo'llanadi: *Mallavoy, Donoxon.*

G) rang-tus bildiruvchi sifatlar ot kategoriyasi shakllarini (egallik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini) qabul qilgan holda hamda fella bilan birikib kelganda otlashadi. M: Muhammad so'nggi sherini bir oz tuzatib, oqqa ko'chirish uchun uyiga bormog'i kerakligini aytdi.

D) hayvon (ko'pincha ot) tusini ifodalovchi sifatlar otlashib qo'llanadi. M: Umrzoq ota samanni tolga bog'lamoqchi edi.

Shuni ham aytish kerakki, otlashish otning grammatik shakllarini olish, manoning siljishi xususiyatlari asosan tub sifatlar chegarasida bo'ladi. Rang bildiruvchi sifatlar otlashib quyidagi manolarni anglatishi mumkin: M: oq so'zi bazi bir shevalarda sut, qatiq, ayron manolarini beradi. *Oq ichdim-ayron ichdim (Xorazm shevasi)*

Oq soʻzi umuman “begunoh” degan manoni beradi: *Oq boʻlsa nimaga guvoh koʻrsatmaydi.*

Qora soʻzi otlashganda “qorachiq”, “sharpa”, “odam” baʼzan “moʻljal” manolarida ham qoʻllanadi: *Koʻz qorasiday asramoq-koʻz qorachigʻiday asramoq. Otamning qorasi yoʻqoldi.*”¹³

X.Komilova, Sh. Shoabdurahmonov, X. Gʻoziyevlarning “ Hozirgi zamon oʻzbek tili” darsligida mustaqil soʻz turkumlaridan son, olmosh, sifatdoshlar haqida malumotlar berilgan.

“**Son.** Sanoq son kelishiklar va egalik bilan turlanadi. Bu holda ular otlashgan boʻladi: Olti-oltiga, yetti-yettidan

Tartib son otlashganda, gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlagi boʻlib kelishi mumkin: Rano birinchi, ikkinchi Sora. U birinchilar qatoriga oʻtib oldi.

Olmosh. Kishilik olmoshlarining otlar (keng manoda) oʻrnida qoʻllanishi ular tabiatidagi substantivlik xususiyatini koʻrsatib turadi. Shuning uchun ham ular gapda asosan otlar bajargan sintaktik funksiyalarda, yani ega, kesim va ikkinchi darajali boʻlak vazifasida keladi. M: Shuncha odam mening nomimni tilga oladi, mening toʻgʻrimda oʻylab yurgan gapimni gapiradi. Meni gapga soladi; kulmasdan, meni kalaka qilmasdan, meni oʻziga teng koʻrib gapimga quloq soladi.

Kishilik olmoshlarida substantivatsiyaga moyillik ustun tursa, koʻrsatish olmoshlarining tabiatida gapda qoʻllanishida attributivlik xususiyati ustun turadi, yani: kishilik olmoshlari gapda ot bajargan vazifa bajarisa, koʻrsatish olmoshlari gapda asosan sifatlar bajargan vazifani bajaradi.

Koʻrsatish olmoshlari garda ega, kesim, toʻldiruvchi vazifasida kelishi mumkin, biroq bunday sintaktik vazifa bajarishi uchun ular otlashishi va gapdagi vazifalariga koʻra kerakli affikslarni olishlari mumkin. M: Oʻrmonjon ularni oʻz uyiga kechki ovqatga taklif qildi.

Sifatdosh gapda koʻpincha aniqllovchi boʻlib keladi. Otlashganda ega va toʻldiruvchi vazifasida kelishi ham mumkin. “¹⁴

M.Hamroev, D.Muhammedova, D. Shodmonqulova, X.Gʻulomova, Sh. Yoʻldoshevalarning “Ona tili” darsligida mustaqil soʻz turkumlaridan sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish hamda alohida soʻz turkumlaridan esa undov va taqlid soʻzlar haqida malumotlar berilgan.

¹³ Maqsuda Sodiqova “Hozirgi oʻzbek tilida sifat” Toshkent “Fan” nashriyoti 1974-yil.

¹⁴ X.Komilova, SH.SHoabdurahmonov, X.Gʻoziev “Hozirgi zamon oʻzbek tili” Toshkent “Faxri kamol” tahriri 1957-yil

“**Sifat** turkumidagi soʻlar bazan ot turkumidagi soʻzlarning manosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat oʻzining leksik va grammatik manosi yoʻqotib, predmetlik manosini izohlaydi. Gapda sifat bogʻlanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik manosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham oʻz ustiga oladi. M: Yaxshi topib gapirar... Yaxshi sifati tushib qolgan kim? Soʻrogʻiga javob boʻlgan, bosh kelishikdagi, ega vazifasidagi ot (odam) vazifasini bajargan. Bu hodisa gap tarkibida yuz bergan. Bunda nutqning ixchamlikka intilishi sabab boʻladi. Sifatlariga oid soʻzlarning hammasi ham otlashavermaydi. Asosan belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar, kishilarning laqabini bildiruvchi (tajang, maymoq, choʻtir, daroz) sifatlar, hayvonlarning tusini bildiruvchi (saman, toʻriq, boʻz, qashqa) sifatlari otlashadi.

Otlashgan sifatlar aniqlovchilik vazifasidan chiqib, otga xos ega, kesim, toʻldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, undalma vazifasini bajaradi. M: Aqlsizlar gap bermaydi otasiga. Yaxshilar, uni eslang.

Sonlarning otlashishi. Son bogʻlanib kelgan ot qoʻllanmaganda, otga qoʻshilib kelgan soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar, yani egalik, kelishik hamda shakl yasovchi koʻplik qoʻshimchasini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan oʻzgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (maqol, matal, aforizmlarda koʻp uchraydi).”

Olmosh: *Ularning hamma (odam) lari jim.*

Sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bogʻlanib kelgan ot qoʻllanmaydi va sifatdosh ot kabi soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni bajaradi. M: *Yoʻlni bilgan qoqilmaydi. Koʻp yurgandan soʻrama, koʻp koʻrgandan soʻra.*

Ravish otlashish xususiyatiga ega, yani ravish bogʻlanib kelgan ot gapda qoʻllanmasligi mumkin. Bunday holda ravish otga xos egalik, koʻplik, kelishik qoʻshimchalarini qabul qiladi va gapda ot kabi sintaktik vazifalarda keladi. M: *Koʻpni koʻrgan koʻhna Buxoro.*

Bu darslikda mustaqil boʻlmagan soʻzlardan faqatgina undov va taqlid soʻzlar haqida fikrlar berilgan.

Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (*Ularning dod-voyi osmon-u falakka chiqdi*), kesim (*endi uning holiga voy*).

Taqlid soʻzlar. Tovushga taqlid soʻzlar bazan otlashib, koʻplik, egalik, kelishik qoʻshimchalarini qabul qiladi va ega, qaratqich-aniqlovchi hamda toʻldiruvchi vazifalarini bajaradi.”¹⁵

Bu darslikda mustaqil soʻz turkumlari otlashuvining barchasi haqida malumotlar berilgan va alohida soʻz turkumlaridan modal soʻzlarning otlashuvi haqida malumotlar berilmagan.

Qalandar Sapaev “Hozirgi oʻzbek tili”(morfemika, soʻz yasalishi va morfologik) darsligida mustaqil soʻz turkumlaridan sifat, son, sifatdash, ravish hamda alohida soʻz turkumlaridan esa undov va taqlid soʻzlar haqida malumotlar berildi.

”**Sifatlar otlashib** kelganda, gapda ega, toʻldiruvchi va qaratqich-aniqlovchi vazifalarida keladi.M: Yomonning yaxshisi boʻlguncha, yaxshining yomoni boʻl. Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar.(m)

Sifatning otga koʻchishi va otlashuvi boshqa-boshqa hodisalardir. Bir turkumdagi soʻzning boshqa turkumga koʻchishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga oʻtgan soʻz nazarda tutiladi. Bunda mazkur soʻzning grammatik mohiyati, qisman manosi oʻzgaradi. Sifatlarning otga koʻchishi ham shunday hodisadir.M: qiz, oʻgʻil, erkak, ayol, chol, qari kabi soʻzlar asli sifat boʻlib, keyinchalik otga aylangan. Bunday soʻzlarning otga koʻchganini yoki koʻchayotganini koʻrsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqllovchi olishida koʻrinadi.M: yosh, yigit, qari, chol.

Sifatning (yoki boshqa biror turkum soʻzining) otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifasini bajaradi. Yaxshi, qizil, yomon, katta... kabi sifatlardan belgi manosi anglashiladi.M: Yaxshiga, kattada... deyilganda esa shu belgiga ega boʻlgan shaxs yoki narsa manosi angashiladi. M: Eskilarini yamaguncha, yangilarini tezroq yasaymiz.

Sifatlar bazan qiyosiy daraja shaklida ham otlashib keladi.M: Sendan koʻra munosibroqni topaman.

Otlashgan sifatlar gapda ega, kesim, toʻldiruvchi va qaratqich-aniqllovchi vazifalarini bajaradi.M: Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda.(m)

Sonlar otlashganda va abstrakt son tushunchasini ifodalaganda, gapda ega, toʻldiruvchi, kesim va qaratqich-aniqllovchi vazifalarini bajaradi.M: Olimlarning ikkisi ham tuproqshunos edilar. Choʻlponoy oʻn birinchini bitirgan.

Tartib son bazan otlashganda, ot shakllarini qabul qilib, gapda ega, toʻldiruvchi, qaratqich-aniqllovchi va kesim vazifasida keladi.M: Unsin bir doʻppini akasining boshiga kiygizib, ikkinchisini Oʻrozga tutdi.

¹⁵ M.Hamroev, D.Muhamedova, D.SHodmonqulova, X.G`ulomova, SH.Yoʻldosheva “Ona tili” Toshkent “Iqtisod-moliya” 2007-yil

Sonlar, odatda, otga bogʻlanib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida keladi. Sonlar bogʻlanib kelgan ot nutqda tushib qolsa, otlashish hodisasi yuz beradi (substantivlashadi). Bundan tashqari son mavhum miqdor tushunchasining nomini ham anglatadi. Sonning otlashishi bilan miqdor tushunchasini ifodalashi bir-biridan farq qiladi. Son otlashganda, miqdor orqali gapda tushib qolgan ot anglatgan shaxs va narsani koʻrsatadi, shu otning grammatik shakllarida koʻplik, egalik va kelishik shakllarida keladi, gapda ular bajargan sintaktik vaiefalarni bajaradi. M: *Oʻn toʻqqizdan oshmay tur, goʻzal. Birining tilida yelning kalomi, birning ogʻzida yurtning salomi.*

Son mavhum miqdor tushunchasining nomi boʻlib kelsa, ot kabi egalik, kelishik qoʻshimchalarini oladi, ot bajaradigan vazifalarda keladi. M: *Beshni beshga koʻpaytirsak, yigirma besh boʻladi.*

Sifatdosh otlashadi. Bu vaqtda sifatdosh kelishik, egalik va grammatik son qoʻshimchalarini olib, ega, kesim, toʻldiruvchi va qaratqich-aniqlovchi vazifasida keladi. M: *Hayotni sevganlar, baxtni sevganlar Doʻstlik qoʻshigʻini kuylashi kerak.*

Ravish otga bogʻlanib, narsaning belgisini bildirgan ravishlar bazan otlashib kelishi ham mumkin. Bunday vaqtda ravishlar otga xos kelishik, egalik va koʻplik qoʻshimchalarini qabul qilib, gapda ega, toʻldiruvchi, qaratuvchi vazifalarida keladi. M: *Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, oʻgʻlim.*

Payt ravishi otlashganda: a) ega vazifasida keladi: M: *Bugunimiz juda yaxshi, ertamiz bundan ham yaxshi boʻladi;* b) toʻldiruvchi vazifasida keladi; M: *Azizjonning buguniga, ertasiga Lutfiniso juda-juda zarur edi. Bugunni oʻylama, ertani oʻyla.* v) qaratqich-aniqlovchi vazifasida keladi. M: *Ertaning gʻamini bugun ye.*

Undovlar otlashgandagina gapning bosh yoki ikkinchi darajali boʻlagi vazifasini bajarishi mumkin. M: *Oh urarman, ohlarim ursin seni.*

Taqlid soʻz otlashganda quyidagi gap boʻlaklari vazifasida keladi. A) ega vazifasida: *Nogʻoralar “gumbur”i va karnaylar sadosi yana osmon-u falakka chiqdi.* B) sifatlovchi vazifasida: *Yer tunda qatqaloq boʻlgan, quyoshda erib “pilch-pilch” loy boʻlgan edi.* V) toʻldiruvchi vazifasida: *Tursunoy hyech narsani koʻrmas, yuragining “dukur-dukuri”dan boshqasini eshitmas edi.* G) hol vazifasida: *Sobir yaxna koʻk choyni “qult-qult” yutib, chopiqqa kirishdi.* D) kesim vazifasida: *Yoʻllar boʻkdi. Etiklar “shalp-shalp” .*¹⁶

Bu qoʻllanmada mustaqil boʻlmagan soʻzlardan undov va taqlid soʻzlarning otlashuvi haqida soʻz yuritilgan.

M.A.Hamroevning “Ona tili” qoʻllanmasida mustaqil soʻz turkumlaridan sifat, son, sifatdosh, ravish hamda mustaqil boʻlmagan soʻzlarlan undov va taqlid soʻzlarning otlashuvi haqida maʼlumot berilgan.

¹⁶Qalandar Sapayev “Hozirgi oʻzbek tili” Toshkent “Oʻqituvchi nashriyoti 2009-yil.

“Sifatlarning otlashishi.

Sifat bog‘langan otning tushib qolishi natijasida shu otning manosi hamda vazifalari sifatga yuklansa, bu sifatlarning otlashuvi deb yuritiladi. Otlashgan sifatlar kim?, nima? so‘roqlariga javob bo‘ladi, egalik, kelishik, ko‘plik vo‘shimchalari bilan qo‘llanadi. Otlashgan sifatlar gap ichida ega, to‘ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi va undalma bo‘lib keladi: Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, yarasi yuqar(m). Bilimlarning kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar. *Yaxshilar, uni eslang!*

Sonlarning otlashishi

Gapda otning so‘rog‘iga javob bo‘ladigan va ot kabi ko‘plik, egalik, kelishik shakllarida kela oladigan son otlashgan son deb ataladi: Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar. Otlashgan sonlar xuddi otlar kabi ega, ot-kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi va hol vazifalarini bajaradi: Besh- o‘nning yarmi. Beshni uchga qo‘shsa, sakkiz bo‘ladi. Imtihonlar yigirmanchida bo‘ladi.

Sifatdoshlar ot o‘rnida qo‘llanib, ot vazifasini bajarishi mumkin, yani otlashadi. Bunda ular otlar kabi kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalarini oladi va gapda ega (O‘qigan o‘zar, o‘qimagan to‘zar.), to‘ldiruvchi (Aytganlaringizni bajardik), qaratqich-aniqlovchi (Kelganlarning kiyimlari ho‘l edi) va undalma (Charchaganlar, dam oling.) bo‘lib keladi.

Ravishlarning otlashishi

Ravishlar ham otlarga xos so‘roqlarga javob bo‘lib otlashadi. Bunda ular ko‘plik, kelishik, egalik qo‘shimchalarini oladi: Ko‘pdan quyon qochib qutilmas. Ko‘pi ketib, ozi qoldi.

Bu qo‘llanmada mustaqil bo‘lmagan so‘zlardan faqatgina undovlar va taqlid so‘zlar haqida malumot berilgan.

Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.), to‘ldiruvchi (Uning oh-vohiga kim quloq soladi?), qaratqich-aniqlovchi (Dod-voyning foydasi yo‘q.G‘ vazifalarini bajaradi.

Tovushga taqlid so‘zlar bazan otlashib, ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qiladi va ega, qaratqich-aniqlovchi hamda to‘ldiruvchi vazifalarini bajaradi: Odamlarning g‘ovur-g‘ovuri bosildi. Chug‘ur-chug‘urning to‘xtashi amri mahol.”¹⁷

Bu qo‘llanmada mustaqil so‘z turkumlaridan olmoshlarning va alohida so‘z turkumlaridan esa modal so‘zlarning otlashuvi haqida malumotlar berilmagan.

¹⁷ M.A.Hamroev “Ona tilidan maruzalar” Toshkent , 2011-yil.

Bundan tashqari maktab darsliklaridan N.Mahmudov, A.Sobirov, D.Nabiyevlarning 6-sinf “Ona tili” darsligida soʻz turkumlaridan faqatgina sifatlarining otlashuvi xususida aytib oʻtilgan.

“Sifatlarning otlashuvi.

Sifat bogʻlanib kelgan ot bazan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtda uning manosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, koʻplik qoʻshimchalari bilan oʻzgarish xususiyatiga ega boʻladi va ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi. M:Toʻgʻri oʻzadi, egri toʻzadi.”¹⁸

II BOB. MUSTAQIL SOʻZLARNING OTLASHUVI

Mustaqil soʻzlar lugʻaviy manoga ega boʻlib, morfologik jihatdan oʻzgaradigan, gap ichida malum sintaktik vazifa bajaradigan soʻzlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish kiradi. Bular yakka holda mano anglatishi, gap boʻlagi boʻla olishi va grammatik manolarini ifodalashga xizmat qilishi bilan yordamchi va alohida guruh soʻzlardan farq qiladi.

Mustaqil soʻzlarning otlashuvi esa malum turkumdagi soʻzlarning ot turkumidagi soʻzlar oʻrnida kelib, uning vazifasini bajarib kelishi orqali yuz beradi.

Bunda otdan tashqari barcha turkumlar otning predmetlik manosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik belgisini ham oʻz ustiga olishi nazarda tutiladi

Masalan:

*Oʻzingdan **kattaning** aytganiga quloq sol.* (3-sinf “Oʻqish kitobi” 113-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va qaratqich kelishik qoʻshimchasini olib, kimning? Soʻrogʻiga javob boʻlgan. Gapda qaratqich-aniloqlovchi vazifasini bajargan.

***Millionlar** taqdiri Qomuslar qomusi Unda mujassam Deydi xalqimiz.* (3-sinf “Oʻqish kitobi” 66-bet)

Ushbu matndagi misolda otlashgan miqdor son koʻplik va belgisiz qaratqich kelishik qoʻshimchalarini olgan. Kimning? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda qaratqich-aniloqlovchi vazifasini bajargan.

Matnlardagi misollarda har bir soʻz turkumi boʻyicha otlashgan soʻzlarning birlik va koʻplikda kelishi, qaysi kelishikda qoʻllanishi, qanday soʻroqlarga javob boʻlishi va gapda qanday sintaktik vazifani bajarishi kabi savollarga javob berib boramiz.

¹⁸ Maktab darsliklari 6-sinf “Ona tili” darsligi

2.1 Sifat turkumidagi so'zlarning otlashuvi

Mustaqil so'z turkumlaridan sifat so'zlari o'rni bilan ot turkumiga o'tib, otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yani bunda sifat belgini emas, predmetni ifodalaydi. Lekin sifat butunlay ot turkumiga o'tib ketmaydi.

Endi biz boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" dagi matnlardan olingan sifatlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz.

Yaqinlari yigitni bu sir-asrordan xabardor qilishibdi. (3-sinf "O'qish kitobi" 31-bet)

Mazkur gapdagi otlashgan sifat 3-shaxs ko'plikda va bosh kelishikda qo'llangan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kovak uch odam bo'yi **balandda**. (2-sinf "O'qish kitobi" 94-bet)

Bu misolda sifat otlashib kelgan, birlikda va bosh kelishikda qo'llangan. Nimada? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ot-kesim vazifasini bajargan.

Boshqalariga so'z bermay, mahmadonalik qilmang. (2-sinf " O'qish kitobi" 76-bet)

Bunda sifat otlashib, 3-shaxs ko'plik egalik va jo'nalish kelishigi qo'shimchalarini qabul qilgan. Kimga? So'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshi nom oladi, ko'r ezgu kishi,

Yomonlar nasibi – el-yurt qarg'ishi. (4-sinf "O'qish kitobi" 33-bet)

Bu misolda otlashgan sifat belgisiz qaratqich kelishikda va ko'plikda qo'llangan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich aniqllovchi vazifasini bajargan.

Askarlik hayoti o'tadigan harbiy bo'linma esa **mardlar** maktabidir. (3-sinf "O'qish kitobi" 94 –bet)

Bunda sifat otlashib, ko'plikda va belgisiz qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniqllovchi vazifasini bajargan.

Agar biz birlashmaganimizda, **ayyorlar** ustidan g'alaba qilolmas edik. (3-sinf "O'qish kitobi" 89-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Ko'plik va belgisiz qaratqich kelishigi qo'shimchasini olib, kimlarning? so'rog'iga javob bo'lgan. Gapda qaratqich-aniqllovchi vazifasini bajargan.

Bechora quyonlar **ayyorlarning** qo'liga tushishiga sal qolibdi-ya. (3-sinf "O'qish kitobi" 88-bet)

Mazkur misolda ham huddi shu sifat otlashgan, ammo belgisi tarzda qo'llangan. Ko'plik va qaratqich kelishigi qo'shimchasini olib, kimlarning? so'rog'iga javob bo'lgan. Gapda qaratqich-aniqllovchi vazifasini bajargan.

O'zingdan **kattaning** aytganiga quloq sol. (3-sinf "O'qish kitobi" 113-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va qaratqich kelishik qo'shimchasini olib, kimning? So'rog'iga javob bo'lgan. Gapda qaratqich-aniqllovchi vazifasini bajargan.

Qizning so'zi to'g'ri, "**Hunarliqa** tegaman" desa, haqqi bor,- debdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 69-bet)

Mazkur misolda yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan sifat otlashgan. Birlikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilib, kimga? So'rog'iga javob bo'lgan. Gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Soddadil **bechora** olmadim deb har qancha ont ichsa ham foydasi bo'lmabdi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 66-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Birlikda va bosh kelishikda qo'llanib, kim? So'rog'iga javob bo'lgan. Gapda ega vazifasini bajargan.

*Buxoro uzoqda, Urganch cho'li tomonda **bir qariya** yashagan ekan.* (4-sinf "O'qish kitobi" 53-bet)

Bu misolda sifat otlashib bosh kelishikda kelgan va birlikda qo'llangan. Kim? So'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

***Katta** bo'lsam, albatta otamday hisobchi bo'laman.* (3-sinf "O'qish kitobi" 190-bet)

Bu misolda sifat otlashib, bosh kelishikda kelgan va birlikda qo'llangan. Kim? So'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

***Yomonlarning** omadi hyech qachon kelmaydi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 33-bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarini oolgan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

***Katta** bo'lay. Sizning o'rningieni olaman.* (4-sinf "O'qish kitobi" 29-bet)

Bu misolda sifat otlashib, bosh kelishikda kelgan va birlikda qo'llangan. Kim? So'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

***Ba'zilar** mehnatlari bekorga ketayotganini ko'rib qo'llarini qo'ltiqqa urdilar.* (4-sinf "O'qish kitobi" 93-bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plik va bosh kelishikda qo'llangan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

***Bechorani** tortqilayverishib, tilkapora qilib yuborishibdi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 163-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlik shaklida va tushum kelishigi qo'shimchasida kelgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Bo'ri doim bir tomonga qarab chopaversa, bo'yni qayishib qoladi, deyishardi **kattalar**.* (4-sinf "O'qish kitobi" 165-bet)

Bu misolda sifat otlashib, bosh kelishikda kelgan va ko'plikda qo'llangan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Qishloqdagi uyimizning **eng kattasi** yem-xashakka to'la edi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 88-bet)

Bu misolda orttirma darajadagi sifat otlashgan. 3-shaxs egalik qo'shimchasini olib, kim? So'rog'iga javob bo'lgan va gapda ega vazifasini bajargan.

*Buvajon, biz har **ikki saxiy** haqida eshitganmiz, albatta.* (4-sinf "O'qish kitobi" 44-bet)

Bunda birikmali sifat otlashib, bosh kelishikda va birlikda kelgan. Kim? So'rog'iga javob bo'lib, gapda to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Shuni ajrim qilib bera oladigan **dono** bormi olamda?* (4-sinf "O'qish kitobi" 43-bet)

Bu misolda sifat otlashib, bosh kelishikda va birlikda kelgan. Kim? So‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Qadim zamonda **bir saxiy** g‘oyat hotamligi bilan dovrug‘ qozongan edi.* (4-sinf “O‘qish kitobi” 43-bet)

Bu misolda birikmali sifat otlashib, bosh kelishikda va birlikda kelgan va kim? So‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Ammo **donoga** quyidan, poygakdan o‘rin tegsa, o‘sha baland to‘rdan ham baland sanaladi.* (4-sinf “O‘qish kitobi” 34-bet)

Bunda sifat otlashib, birlik va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgan. Kimga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

***Boshqalarnikiga** ham boray-da. Ijizat bermasangiz bo‘lmaydi!-debdi.* (4-sinf “O‘qish kitobi” 40-bet)

Mazkur misolda otlashgan sifat ko‘plik, o‘xshatish vajo‘nalish kelishigi qo‘shimchalarini olgan. Kimga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Bu o‘lkaning **donolari** ham ko‘p ekan.* (4-sinf”O‘qish kitobi” 194-bet)

Bu gapda otlashgan sifat 3-shaxs ko‘plik egalik qo‘shimchasini olgan. Kim? So‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Odobni **beodobdan** o‘rgan.* (3-sinf “O‘qish kitobi” 175-bet)

Bunda yasovchi qo‘shimcha bilan yasalgan otlashgan sifat birlik va chiqish kelishigi qo‘shimchasini qabul qilgan. Kimdan? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Odatda bunday musobaqalardan oldin Mahmud **ulug‘larning** qadamjolarini ziyorat qilar ekan.* (4-cinf “O‘qish kitobi” 114-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Ko‘plikda va qaratqich kelishikda qo‘llangan, hamda kimlarning? so‘rog‘iga javob bo‘lib gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

*Bugun ham ezgu deb atalgan har qanday odam **ezgularga** bosh bo‘ladi.*

(4-sinf “O‘qish kitobi” 34-bet)

Bunda otlashgan sifat ko‘plikda va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qabul qilgan. Kimlarga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

*O‘zingdan **kattaroqlarni** uchratganda chiroyli jilmayib: Assalomu Alaykum degin.* (4-sinf “O‘qish kitobi” 129-bet)

Bu misolda orttirma darajadagi sifat otlashgan. Ko‘plikda va tushum kelishikda qo‘llangan, hamda kimlarni? so‘rog‘iga javob bo‘lgan. Gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Tog‘am ermak bo‘lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. U kishi **usta merqanlar**.* (4-sinf “O‘qish kitobi” 120-bet)

Bu misolda otlashgan birikmali sifat ko‘plikda va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ot-kesim vazifasini bajargan.

***Sovuqdan** dir-dir qaltirishayotgan Tipratikon, Qizilishton, Quyon bir joyga yig‘ishibdi.* (3-sinf “O‘qish kitobi” 85-bet)

Bunda otlashgan sifat birlik va chiqish kelishigi qo‘shimchasini qabul qilgan. nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

Ming maqtansanglar-da, bu dunyoda eng zo'ri men. (3-sinf "O'qish kitobi"142-bet)

Bu misolda qiyosiy darajadagi otlashgan birikmali sifat 3-shaxs birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Qutlug' bo'lsin, ulug'larning ismi, - dedi Yunusxon kulimsirab. (3-sinf "O'qish kitobi"134 -bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Ko'plikda va qaratqich kelishikda qo'llangan, hamda kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Boshim egikligi- yaxshilarga ta'zimim. (3-sinf "O'qish kitobi"159 -bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Boshqadan emas, o'zingdan o'pka qil. Garchi yordam bermasang. (2-sinf "O'qish kitobi"81 -bet)

Bunda otlashgan sifat birlik va chiqish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimdan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

O'ktamjon, ikkisi ham seniki debdi. Oltinlar kambaq'allarga ham bo'lib berilibdi. (2-sinf "O'qish kitobi"81 -bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Boshqalar qo'shib, bahs qizib ketdi. (4-sinf "O'qish kitobi"29 -bet)

Bu matnda otlashgan sifat ko'plik va bosh kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Bilimsizqa to'rdan o'rin bo'lsa, ko'r

Bu to'r poygak bo'ldi, poygak esa to'r. (4-sinf "O'qish kitobi"34 -bet)

Ushbu maqolda yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Kim hunarin desa, u dono bo'lur,

Nodonlar qudrat deb boylikni bilur. (2-sinf "O'qish kitobi"87 -bet)

Bu maqolda otlashgan sifat ko'plik va bosh kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Abdulla Qahhorni o'z davrida istiqlol yo'lida faol kurashgan o'tyuraklardan biri deb bilgan. (3-sinf "O'qish kitobi"17 -bet)

Bu misolda qo'shma sifat otlashgan. Ko'plik va chiqish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimlardan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bunga dehqon ham, kambaq'al ham rozi bo'libdi. (3-sinf "O'qish kitobi"17 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Shunda Rustam: " Mard so'zidan, yo'lbars izidan qaytmaydi," degan gap bor. (3-sinf "O'qish kitobi"17 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

U **bechora** bir shohning tuzog'iga ilinib, qanot-quyrug'iga ko'p shikast yetibdi.. (2-sinf "O'qish kitobi"12 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kichkinasi esa akasiga har ishda madad beribdi. (2-sinf "O'qish kitobi" 12 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat 3-shaxs birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Tekinning minnati ko'p,

Mehnatning ziynati ko'p. (2-sinf "O'qish kitobi"46 -bet)

Bu maqolda sifat otlashgan. Birlikda va qaratqich kelishikda qo'llangan, hamda kimning? so'rog'iga javob bo'lib gapda qaratqich-aniqllovchi vazifasini bajargan.

Metro yo'lovchilarini **uzoq'ini** yaqin qiladi. (2-sinf "O'qish kitobi"11 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat 3-shaxs egalik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasini? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bulardan tashqari metropoliten yerosti temir yo'li yo'lovchilarning **uzoq'ini** yaqin qilmoqda. (3-sinf "O'qish kitobi"13 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat 3-shaxs egalik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasini? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bechoraqa yordam beraylik! – debdi. (2-sinf "O'qish kitobi"145 -bet)

Bunda otlashgan sifat birlik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Javdar bug'doyning bir turi. U **sovuqqa** chidamli don, serhosil bo'ladi.

(2-sinf "O'qish kitobi"62 -bet)

Bunda otlashgan sifat birlik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. nimaga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bolalar siz uy ishlarida ota-onangizga va **kattalarqa** yordam berasizlarmi? (2-sinf "O'qish kitobi"67 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat ko'plik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Agar oz narsa bilan qanoatlanmasang, **kattasidan** ham ayrilasan, -dedi.

(2-sinf "O'qish kitobi"78 -bet)

Bu misolda otlashgan sifat 3-shaxs birlikda va chiqish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimdan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Kamtarga – kamol, Manmanga –zavol. (2-sinf "O'qish kitobi" 165-bet)

Bu maqolda otlashgan sifat birlik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Kamtarga -kamol , **Manmanga** –zavol. (O'sha kitob)

Bunda ham otlashgan sifat birlik va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshidan bog' qolar, **Yomondan** dog' qolar. (2-sinf "O'qish kitobi" 74-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlik va chiqish kelishigi qo'shimchasida kelgan. Kimdan? So'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshidan bog' qolar, **Yomondan** dog' qolar. (O'sha kitob)

Bu misolda ham otlashgan sifat birlik va chiqish kelishigi qo'shimchasida kelgan. Kimdan? So'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshiga yondash, **yomondan** qoch! (2-sinf "O'qish kitobi" 89-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshiga yondash, **yomondan** qoch! (2-sinf "O'qish kitobi" 89-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va chiqish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimdan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Baxil baxilni ko'rganda saxiyligi tutadi. (4-sinf "O'qish kitobi" 67-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Birlikda va bosh kelishikda qo'llangan, hamda kim? so'rog'iga javob bo'lgan. Gapda ega vazifasini bajargan.

Baxil **baxilni** ko'rganda saxiyligi tutadi. (4-sinf "O'qish kitobi" 67-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Birlikda va tushum kelishikda qo'llangan, hamda kimni? so'rog'iga javob bo'lgan. Gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Saxiyning yehsoniga baxilning boshi og'rir. (4-sinf "O'qish kitobi" 22-bet)

Bu misolda sifat otlashgan. Birlikda va qaratqich kelishikda qo'llangan, hamda kimning? so'rog'iga javob bo'lgan. Gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Saxiyning ehsoniga **baxilning** boshi og'rir. (4-sinf "O'qish kitobi" 22-bet)

Bu misolda ham sifat otlashgan. Birlikda va qaratqich kelishikda qo'llangan, hamda kimning? so'rog'iga javob bo'lib gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Ochlarga taom, **tanish-notanishlarga** salom,- deb javob beribdilar **Payg'ambarimiz**. (3-sinf "O'qish kitobi" 118-bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan

Ochlarga taom, **tanish-notanishlarga** salom,- deb javob beribdilar **Payg'ambarimiz**. (3-sinf "O'qish kitobi" 118-bet)

Bunda otlashgan juft sifat ko'plikda va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshiqayam, **yomongayam** birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir. (4-sinf "O'qish kitobi" 110-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yaxshiqayam, **yomongayam** birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir. (O'sha kitob)

Bu misolda ham otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Qari bilganni – **pari** bilmas. (3-sinf "O'qish kitobi" 113-bet)

Matndan olingan bu misolda otlashgan sifatlar birlikda va bosh kelishikda qo'llangan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Menga hunarlilarning otasi kerak emas, hunarlining o'zi kerak.

(4-sinf "O'qish kitobi" 69-bet)

Bunda otlashgan sifat ko'plikda va qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan. Kimning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Menga hunarlilarning otasi kerak emas, hunarlining o'zi kerak.

(O'sha kitob)

Bunda otlashgan sifat birlikda va qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan. Kimning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Kichiklar kattalarga, yolg'iz odam jamoat bo'lib turganlarga salom beradi. (4-sinf "O'qish kitobi" 32-bet)

Bu misolda ham otlashgan sifat ko'plikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kichiklar kattalarga, yolg'iz odam jamoat bo'lib turganlarga salom beradi. (O'sha kitob)

Bu misolda ham otlashgan sifat ko'plikda va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yomondan qoch, yaxshiga yondash. (3-sinf "O'qish kitobi" 39-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va chiqish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimdan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yomondan qoch, yaxshiga yondash. (O'sha kitob)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Egri bo'lmang, egri unmas

To'g'riqa el bolta urmas. (3-sinf "O'qish kitobi" 114-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Egri bo'lmang, egri unmas

To'g'riqa el bolta urmas. (O'sha kitob)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Shayx Najmiddin Kubro donolar donosi sanalarkan. (4-sinf "O'qish kitobi" 194-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va belgisiz qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan. Kimning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Shayx Najmiddin Kubro donolar donosi sanalarkan. (O'sha kitob)

Bu misolda otlashgan sifat 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda kesim vazifasini bajargan.

Yalqov bilan anqov – dushman uchun ov. (4-sinf "O'qish kitobi" 52-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishigda qo'llangan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Yalqov bilan anqov – dushman uchun ov. (4-sinf "O'qish kitobi" 52-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishikda qoʻllangan. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

Saxiy topsa barcha yer. *Bardoshliga yogʻliq osh,*

Baxil topsa bosib yer. Sabrsizga osh ham tosh. (3-sinf “Oʻqish kitobi”139-bet)

Bu misolda otlashgan sifat birlikda va bosh kelishikda qoʻllangan. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Saxiy topsa barcha yer. **Bardoshliga** yogʻliq osh,*

Baxil topsa bosib yer. Sabrsizga osh ham tosh. (Oʻsha kitob)

Bunda yasovchi qoʻshimcha bilan yasalgan sifat birlikda va joʻnalish kelishikda qoʻllangan. Kimga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Saxiy topsa barcha yer. Bardoshliga yogʻliq osh,

Baxil topsa bosib yer. *Sabrsizga osh ham tosh.* (3-sinf “Oʻqish kitobi”139-bet)

Bu misolda ham otlashgan sifat birlikda va bosh kelishikda qoʻllangan. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

Saxiy topsa barcha yer. Bardoshliga yogʻliq osh,

*Baxil topsa bosib yer. **Sabrsizga** osh ham tosh.* (Oʻsha kitob)

Bunda yasovchi qoʻshimcha bilan yasalgan sifat birlikda va joʻnalish kelishikda qoʻllangan. Kimga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Ezgularning nomi buyuk boʻladi, yomonlar nasibi esa qargʻish va soʻkishdan boshqa narsa boʻlmaydi. (4-sinf “Oʻqish kitobi” 33-bet)

Bu misolda otlashgan sifat koʻplikda va qaratqich kelishikda qoʻllangan. Kimning? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

*Ezgularning nomi buyuk boʻladi, **yomonlar** nasibi esa qargʻish va soʻkishdan boshqa narsa boʻlmaydi.* (Oʻsha kitob)

Bu misolda otlashgan sifat koʻplikda va belgisiz qaratqich kelishikda qoʻllangan. Kimning? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

Ishla, manglaydan oqsin ter,

Yaxshi-yomonni sinab yur.

Yaxshilarga qoʻlingni ber,

Shunda yoʻling boʻlar, bolam. (3-sinf “Oʻqish kitobi” 181-bet)

Bunda otlashgan juft sifat birlikda va tushum kelishikda qoʻllangan. Kimni? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Ishla, manglaydan oqsin ter,

Yaxshi-yomonni sinab yur.

Yaxshilarga qoʻlingni ber,

Shunda yoʻling boʻlar, bolam. (Oʻsha kitob)

Bunda otlashgan sifat koʻplikda va joʻnalish kelishikda qoʻllangan. Kimga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Bilagi zoʻr birni yiqar,

Bilimi zoʻr mingni yiqar. (3-sinf “Oʻqish kitobi” 39-bet)

Ushbu maqolda birikmali sifat otlashgan, birlikda va bosh kelishikda qoʻllangan. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

Bilagi zoʻr birni yiqar,

Bilimi zo‘r mingni yiqar. (O‘sha kitob)

Ushbu maqolda ham birikmali sifat otlashgan, birlikda va bosh kelishikda qo‘llangan. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Mard bo‘lgandan keyin **yomonni** ham yaxshilik bilan yengar ekan.*

(3-sinf “O‘qish kitobi” 56-bet)

Bunda otlashgan sifat birlikda va tushum kelishikda qo‘llangan. Kimni? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

E-ha, qaysi ilg‘orlar desam, azamat bolalarimiz ekan-ku, hormanglar! –dedi kelganlarning eng kattasi.

Ushbu gapda birikmali sifat otlashgan, birlikda va bosh kelishikda qo‘llangan. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ot kesim vazifasini bajargan.

Aqlsizlar gap bermaydi otasiga. (4-sinf “O‘qish kitobi” 212-bet)

Bu misolda yasovchi qo‘shimcha bilan yasalgan otlashgan sifat ko‘plikda va bosh kelishikda qo‘llangan. Kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan

*Toshkent o‘tmishda oddiy **mehnatkashlar** shahri bo‘lgan.* (3-sinf “O‘qish kitobi” 63-bet)

Bunda otlashgan sifat ko‘plikda va bosh kelishikda qo‘llangan. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan.

2.2 Son turkumidagi so‘zlarning otlashuvi

Mustaqil so‘z turkumlaridan yana biri son so‘z turkumi bo‘lib undagi so‘zlari o‘rni bilan ot turkumiga o‘tib, otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yani bunda son belgining son-sanog‘ini emas, predmetni ifodalaydi. Lekin son butunlay ot turkumiga o‘tib ketmaydi.

Endi biz boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” dagi matnlardan olingan sonlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz. Bunda biz otlashgan sonlarning mano jihatdan turlariga ko‘ra bilinishini ko‘rib chiqamiz.

Sonlar mano va grammatik xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq sonlar tarkibiga kiruvchi miqdor sonlar, jamlovchi sonlar va taqsim sonlarning otlashuvi hodisasini biz boshlang‘ich sinf O‘qish kitoblaridagi matnlarda uchratdik.

2.2.1 Miqdor sonlarning otlashuvi

*O‘ktamjon, **ikkisi** ham seniki debdi. Oltinlar kambag‘allarga ham bo‘lib berilibdi.* (2-sinf “O‘qish kitobi” 165-bet)

Bu matndagi misolda otlashgan miqdor son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Men katta bo‘lganimda,

Besh yuzga kirganimda.

Katta dada bo‘laman,

Sizlarni sog‘inaman. (4-sinf “O‘qish kitobi” 137-bet)

Ushbu matndagi misolda otlashgan miqdor son birlik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. nimaga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Otaning **biri** olti, **biri** to'rt yashar etim nabiralari ham Unsinni yaxshi ko'rardilar. (3-sinf "O'qish kitobi" 66-bet)

Bu misolda otlashgan miqdor son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Millionlar taqdiri Qomuslar qomusi Unda mujassam Deydi xalqimiz. (3-sinf "O'qish kitobi" 66-bet)

Ushbu matndagi misolda otlashgan miqdor son ko'plik va belgisiz qaratqich kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniglovchi vazifasini bajargan.

*Bilagi zo'r, **birni** yiqar,*

***Bilimi** zo'r, **mingni** yiqar.* (3-sinf "O'qish kitobi" 39-bet)

Bu misolda otlashgan miqdor son birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Bilagi zo'r, **birni** yiqar,*

***Bilimi** zo'r, **mingni** yiqar.* (3-sinf "O'qish kitobi" 39-bet)

Yana shu misolda ikkinchi otlashgan miqdor son birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

***Birni** kessang, o'nni ek.* (3-sinf "O'qish kitobi" 164-bet)

Ushbu misolda otlashgan miqdor son birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. nimani? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

***Birni** kessang, **o'nni** ek.* (3-sinf "O'qish kitobi" 164-bet)

Yana shu misolda otlashgan miqdor son birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. nimani? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Rahim boboning o'n bir bolasi, oltmish etti nabirasi bor... Besh qizi- muallim, yana **biri**- doktor.* (4-sinf "O'qish kitobi" 137-bet)

Bu misolda otlashgan miqdor son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Ularning **biri** katta boy, ikkinchisi kambag'al edi.* (3-sinf "O'qish kitobi" 111-bet)

Bunda otlashgan miqdor son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

***Biri** cho'nqayib olgan, ikkinchisi tikka turgan va meni sergaklanib kuzatayotgan edi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 151-bet)

Bu misolda otlashgan miqdor son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

2.2.2 Jamlovchi sonlarning otlashuvi

Ikkovlari bir sinfda o'qiy boshladilar. (4-sinf "O'qish kitobi" 186-bet)

Ushbu misolda otlashgan jamlovchi son 3-shaxs ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Ikkovimizni ariqning narigi tomonida ko'rishibdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 88-bet)

Bu misolda otlashgan jamlovchi son 3-shaxs ko'plik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Iso bobo aylanib, **uchalasini** ko'rib keldi. (4-sinf "O'qish kitobi" 163-bet)

Bu misolda otlashgan jamlovchi son 3-shaxs birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Ikkalasi ham tomdagi ustalarning ishini tomosha qilishardi.

(4-sinf "O'qish kitobi" 163-bet)

Ushbu misolda otlashgan jamlovchi son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

2.2.3 Dona sonlarning otlashuvi

Uch o'rtoqning **bittasi** unday deb, ikkinchisi bunday deb gap talashib qolishdi. (3-sinf "O'qish kitobi" 190-bet)

Bunda otlashgan taqsim son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

2.2.4 Tartib sonlarning otlashuvi

Ularning biri katta boy, **ikkinchisi** kambag'al edi. (3-sinf "O'qish kitobi" 111-bet)

Bunda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Uch o'rtoqning bittasi unday deb, **ikkinchisi** bunday deb gap talashib qolishdi. (3-sinf "O'qish kitobi" 190-bet)

Bunda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Biri cho'nqayib olgan, **ikkinchisi** tikka turgan va meni sergaklanib kuzatayotgan edi. (4-sinf "O'qish kitobi" 151-bet)

Bu misolda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Odamlar bir shahardan **ikkinchisiga** borish uchun ko'pincha ot-aravalarda yurardilar.* (3-sinf "O'qish kitobi" 64-bet)

Bu misolda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Alisher Navoiy **birinchilardan** bo'lib ona tilida "Xamsa" yozdilar.*

(3-sinf "O'qish kitobi" 64-bet)

Ushbu misolda otlashgan tartib son ko'plik va chiqish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlardan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Bu ishga ikkita odam olindi. Sen **uchinchisi** bo'lasan.* (4-sinf "O'qish kitobi" 37-bet)

Bu misolda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Yigirma sakkizinchida kelaman, -dedi Doniyor **birinchiga**.* (4-sinf "O'qish kitobi" 117-bet)

Bunda otlashgan tartib son birlik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ot kesim vazifasini bajargan.

*O'choqlarning biriga qozon, **ikkinchisiga** choydosh osilgan.* (4-sinf "O'qish kitobi" 136-bet)

Bunda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*O'ttiz to'qqiztasini topib, **qirginchisini** hech qaerdan topishmabdi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 136-bet)

Ushbu misolda otlashgan tartib son 3-shaxs birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

2.3 Ravish turkumidagi so'zlarning otlashuvi

Barcha mustaqil so'z turkumlari singari ravish so'z turkumida ham otlashishi mumkin so'zlar uchraydi. Bunda ular otga xos ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilishi va sintaktik vazifalarini bajarib keladi.

Mana endi biz boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" dagi matnlardan olingan ravishlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz. Bunda biz otlashgan ravishlarning mano jihatdan turlaridan daraja-miqdor ravishlarining otlashuvini ko'rib chiqdik..

2.3.1 Miqdor ravishlarining otlashuvi

*Elektr nuri bo'lmasa, qorong'ida dars tayyorlay olmaysizlar. Bobom **ko'pni** ko'rganlar.* (2-sinf "O'qish kitobi" 76-bet)

Ushbu misolda otlashgan daraja miqdor ravishi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Ko'plar keldi. *Har xil ovqatlar pishirildi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 90-bet)

Mazkur misolda otlashgan daraja miqdor ravishi ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Abdullajon **ko'pni** hayajonga soladigan gapni gapirdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 135-bet)

Bu misolda ham otlashgan daraja miqdor ravishi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

2.3.2 Payt ravishlarining otlashuvi

2.4 Olmosh turkumidagi so'zlarning otlashuvi

Olmoshlarning otlar (keng manoda) o'rnida qo'llanishi ular tabiatidagi substantivlik xususiyatini ko'rsatib turadi. Ba'zi olmoshlar otlashishga moyil bo'lib, ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va otning so'roqlariga javob bo'lib, ot kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

2.4.1 Ko'rsatish olmoshlarining otlashuvi

*I-i, **anavini** qaranglar! – ermak qildi Karim.* (3-sinf "O'qish kitobi" 190-bet)

Bu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi 3-shaxs birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Mana senga xurmacha, sen faqat **shuni** aytishing kerak.* (4-sinf "O'qish kitobi" 212-bet)

Ushbu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Qani, endi yurishingni tomosha qilay, debdi taqachi, baqaga **bunisi** tasir qilmabdi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 78-bet)

Bunda otlashgan ko'rsatish olmoshi 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Endi ular **shuni** tariflaydigan bo'lishsa, "qorday oppoq" deb gapirishadigan bo'lishibdi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 84-bet)

Bu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Anavini sizlar yasadinglarmi?- deb so'radi akam biz tomonga qarab.

(4-sinf "O'qish kitobi" 84-bet)

Ushbu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi 3-shaxs birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

“ **Buni** bir yoqlik qilmasak, ertaga yana birortamizni o'ldirib ketadi, “ dedik.
(4-sinf "O'qish kitobi" 84-bet)

Bu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bolaga ish buyur ketidan o'zing yugur deb **shuni** aytar ekanlar-da!

(4-sinf "O'qish kitobi" 84-bet)

Bu misolda ham otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan

Urushda ham kim aqlini yo'qotib qochda, o'q avval **o'shanqa** tegadi. (4-sinf "O'qish kitobi" 153-bet)

Bu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. Kinga? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Shifokor muloyimlik bilan **mana shuni** ichsang tuzalib ketasan. (4-sinf "O'qish kitobi" 144-bet)

Ushbu misolda otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

SHuni beraqol, -deb yalinibdi chumchuq. (4-sinf "O'qish kitobi"134-bet

Bu misolda ham otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan

Bo'linganni bo'ri er, **shuni** esda tutinglar. (4-sinf "O'qish kitobi"47-bet)

Bunda ham otlashgan ko'rsatish olmoshi birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog`iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan

2.4.2 Belgiga nisbatan so'roq olmoshlarining otlashuvi

2.4.3 Belgilash olmoshlarining otlashuvi

2.5 Felning sifatdosh shakliga oid so'zlarning otlashuvi

Mustaqil so'z turkumlaridan yana biri sifatdosh so'zlari o'rni bilan ot turkumiga o'tib, otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yani bunda sifatdosh otga xos bo'lgan belgini ifodalaydi. Lekin sifatdosh butunlay ot turkumiga o'tib ketmaydi.

Endi biz boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" dagi matnlardan olingan sifatdoshlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz.

Ko'p o'qigan ko'p bilar. (3-sinf "O'qish kitobi"39-bet)

Ushbu misolda otlashgan birikmali sifatdosh birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Otliq piyodaga turgan odam **o'tirganlarga** salom berishi kerak. (4-sinf "O'qish kitobi"32-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Ibn Sino boshida chelaklab suv tashib **o't o'chirayotganlarga** qarashib turdi. (4-sinf "O'qish kitobi"93-bet)

Ushbu misolda otlashgan birikmali sifatdosh ko'plik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

SHu payt qayoqdandir bo'rining cho'zib-cho'zib **uvillaqani** eshitildi. (4-sinf "O'qish kitobi"93-bet)

Bunda otlashgan sifatdosh 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Mayli iljaysa yomonmi? **Ko'rganlar** hazilkash ekan, deydi-da. (4-sinf "O'qish kitobi"89-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Asir qilib olib **ketilayotganlarning** oh-vohlari quloqni qomatga keltiradi. (4-sinf "O'qish kitobi"89-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va qaratqich kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich aniqllovchi vazifasini bajargan.

So'ngra huzuriga **kelganlarning** o'zini savolga tutdi. (4-sinf "O'qish kitobi"44-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va qaratqich kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich aniqllovchi vazifasini bajargan.

Qadim zamonda hokimlardan biri ovga chiqdi. Hokim va u bilan birga ovga **chiqqanlar** bir erga kelib to'xtadilar. (4-sinf "O'qish kitobi"38-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Keyin nima **egani** esidan chiqib ketibdi. (4-sinf "O'qish kitobi"219-bet)

Bunda otlashgan sifatdosh 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Xullas, uning uyida kattagina yig'in bo'ldi, lekin yig'ilqanlar faqat bolalar edi. (4-sinf "O'qish kitobi"219-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Bora-bora tun salqini tushdi. Chirillaqani butun polizga eshitildi. (4-sinf "O'qish kitobi"27-bet)

Bunda otlashgan sifatdosh 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kulbaning orqa tarafidan bir nimaning juda qattiq, sovuq chingirqani eshitildi. (4-sinf "O'qish kitobi"27-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Men oilasi ahil bo'lib yashaydiganlarni yaxshi ko'raman. (4-sinf "O'qish kitobi"40-bet)

Ushbu misolda otlashgan birikmali sifatdosh ko'plik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlarni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Bo'ri orqasidan quvlab ketayotqanlarqa burilib qarolmas ekan. (4-sinf "O'qish kitobi"165-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Yo'ldan adashqanlar bir joyga kelib qolganlarini sezishmay qolishdi. (4-sinf "O'qish kitobi"187-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kelajagimiz uchun jon berganlar ruhi yod etildi. (4-sinf "O'qish kitobi"200-bet)

Bu misolda otlashgan birikmali sifatdosh ko'plik va belgisiz qaratqich kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlarning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich aniqlovchi vazifasini bajargan.

Bo'linganni bo'ri er, shuni esda tutinglar. (2-sinf "O'qish kitobi"47-bet

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh birlik va tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimni? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Elektr nuri bo'lmasa, qorong'ida dars tayyorlay olmaysizlar. Bobom ko'pni ko'rqanlar. (2-sinf "O'qish kitobi"76-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ot kesim vazifasini bajargan.

Kichiklar kattalarga, yolg'iz odam jamoat bo'lib turqanlarqa salom beradi. (4-sinf "O'qish kitobi"32-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh ko'plik va jo'nalish kelishik qo'shimchalarini olgan. kimlarga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Qari **bilqanni**- pari bilmas. (3-sinf “O’qish kitobi”113-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh birlik va tushum kelishik qo’shimchalarini olgan. nimani? so’rog`iga javob bo’lib, gapda vositasiz to’ldiruvchi vazifasini bajargan.

*E-ha, qaysi ilg`orlar desam, azamat bolalarimiz ekan-ku, hormanglar! –dedi **kelqanlarning** eng kattasi.* (4-sinf “O’qish kitobi”28-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh ko’plik va qaratqich kelishik qo’shimchalarini olgan. Kimlarning? so’rog`iga javob bo’lib, gapda qaratqich aniqlovchi vazifasini bajargan.

Qimirlagan qir oshar. (3-sinf “O’qish kitobi”164-bet)

Bu misolda otlashgan sifatdosh birlik va bosh kelishik qo’shimchalarini olgan. Kim? so’rog`iga javob bo’lib, gapda ega vazifasini bajargan.

O’tqan-ketqanlar ularning qaddi-bastlariga suqlanib qarasharkan. (3-sinf “O’qish kitobi”159-bet)

Mazkur misolda otlashgan sifatdosh ko’plik va bosh kelishik qo’shimchalarini olgan. Kimlar? so’rog`iga javob bo’lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Bobolar bu haqda der:

Bo’linganni bo’ri er” (3-sinf “O’qish kitobi”41-bet)

Ushbu misolda otlashgan sifatdosh birlik va tushum kelishik qo’shimchalarini olgan. Kimni? so’rog`iga javob bo’lib, gapda vositasiz to’ldiruvchi vazifasini bajargan.

*Kishi bilmas yaxshi ish qilishning ham zavqi bor. Buni Boqiga **o’xshaqanlar** biladi.* (3-sinf “O’qish kitobi”60-bet)

Mazkur misolda otlashgan sifatdosh ko’plik va bosh kelishik qo’shimchalarini olgan. Kimlar? so’rog`iga javob bo’lib, gapda ega vazifasini bajargan.

III BOB. ALOHIDA GURUH SO’Z TURKUMLARIDAGI SO’ZLARNING OTLASHUVI

Alohida guguh so’zlarga modal so’z, undov so’z va taqlid so’zlar kiradi. Bu so’zlar otlashib gapda otga xos turli vazifalarda kelishi mumkin. Bunday hollarda ular egalik, kelishik, son (ko’plik) qo’shimchalarini qabul qiladi.

Modal so’zlarning ayrimlari otning sintaktik vazifasini bajaradi. *Bor, yo’q, kerak* so’zlari egalik, kelishik, son (ko’plik) qo’shimchalarini qabul qilib otlashib keladi. *M: Bor maqtansa topilar, yo’q maqtansa chopilar.*

Undovlar otlashganda gapning bosh va ikkinchi darajali bo’lagi vazifasini bajarishi mumkin. Otga xos vazifalarni bajarib, gapda turli vazifalarda keladi. *M: Oh urarman, ohlarim ursin seni.*

Taqlid so’zlar otlashganda gapda ega, sifatlovchi, to’ldiruvchi, hol va kesim vazifalarini bajaradi. *M: Shamol esardi g’ir-g’ir.*

3.1 Modal soʻzlarning otlashuvi

Barcha soʻz turkumlari qatori modal soʻzlarning ham ayrimlari otlashuv xususiyatiga ega. Lekin biz buni koʻrib chiqqan barcha darsliklarimizda bu haqda kamdan-kam fikrlar berilib oʻtganining guvohi boʻldik. Ayrim darsliklarda bir jumla bilan boʻlsa ham modal soʻzlar otlashadi deyilgan oʻrinlar mavjud.

Biz boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi”dagi matnlardan olingan modal soʻzlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz.

*Shu yili dehqonning dalasidagi ekinlar kasallikka chalinib, **bori** nobud boʻlibdi.* (3-sinf “Oʻqish kitobi” 51-bet)

Ushbu misolda otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va bosh kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nima? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Akmal doʻstiga voqyeaning **borini** roʻy-rost aytib berdi.* (3-sinf “Oʻqish kitobi” 112-bet)

Ushbu misolda otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va tushum kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimani? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

***Yoʻqlarning** nimasidan kechirim soʻraysan, dedi u oʻz qilmishiga pushaymon boʻlib.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 124-bet)

Bu misolda otlashgan modal soʻz koʻplik va qaratqich kelishik qoʻshimchalarini olgan. Kimlarning? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajargan.

*Bahrom **bor-yoʻqʻini** xarsangtoshga urdi.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 129-bet)

Mazkur misolda juftlashib otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va tushum kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimani? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

***Yoʻqlarga** gapimni yetkazib qoʻying!* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 204-bet)

Ushbu misolda otlashgan modal soʻz koʻplik va joʻnalish kelishik qoʻshimchalarini olgan. Kimga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

***Boriga** shukur qil,*

Yoʻgʻiga sabr qil. (4-sinf “Oʻqish kitobi” 204-bet)

Mazkur maqolda otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va joʻnalish kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimaga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

Boriga shukur qil,

***Yoʻgʻiga** sabr qil.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 204-bet)

Mazkur maqolda otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va joʻnalish kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimaga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

***Borini** gapirish uchun ham odamga kuch-gʻayrat kerak.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 212-bet)

Mazkur misolda otlashgan modal soʻz 3-shaxs birlik va tushum kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimani? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

3.2 Undov soʻzlarning otlashuvi

Alohida soʻz turkumlaridan yana biri undov soʻzlari boʻlib gapda otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yani bunda undov otga xos boʻlgan vazifani bajarib otlashadi.

Biz boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” dagi matnlardan olingan undov soʻzlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz.

*Asir qilib olib ketilayotganlarning **oh-vohlari** quloqni qomatga keltiradi.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 91-bet)

Ushbu misolda otlashgan undov soʻz 3-shaxs birlik va bosh kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimasi? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda ega vazifasini bajargan.

*Inobat opaning **hay-hayiga** qaramay telefonda “ Tez yordam” mashinasini chaqirdi.* (3-sinf “Oʻqish kitobi” 176-bet)

Bu misolda otlashgan his-hayajan undovi 3-shaxs birlik va joʻnalish kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimasiga? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

*Koʻchadagi **dod-voydan** Qosimjon shoshib-pishib xonaga kirdi.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 122-bet)

Ushbu misolda otlashgan undov soʻz birlik va chiqish kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimadan? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

*Alisher **oh-vohini** toʻxtatib, eshak ustidan pastga irgʻidi.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 89-bet)

Bu misolda otlashgan undov soʻz birlik va tushum kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimani? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

*U eshikdan kirib, oʻgʻlining **oh-vohini** eshitdi.* (4-sinf “Oʻqish kitobi” 141-bet)

Bu misolda otlashgan undov soʻz birlik va tushum kelishik qoʻshimchalarini olgan. Nimani? soʻrogʻiga javob boʻlib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

3.3 Taqlid soʻzlarning otlashuvi

Alohida soʻz turkumlaridan yana biri taqlid soʻzlari boʻlib gapda otning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Yaʼni bunda undov otga xos boʻlgan vazifani bajarib otlashadi.

Biz boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” dagi matnlardan olingan taqlid soʻzlarning otlashishiga doir misollardan keltiramiz.

Osmondan kapalak qor yog'ar, bolalar giy-chuv ko'tarib o'ynashardi. (3-sinf "O'qish kitobi" 81-bet)

Bu misolda tovushga taqlid so'z otlashgan birlik va belgisiz tushum kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimani? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

O'qituvchi ko'chadagi shivir-shivir tinganini aytdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 123-bet)

Ushbu misolda taqlid so'z otlashgan, birlik va belgisiz qaratqich kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimaning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda qaratqich-aniglovchi vazifasini bajargan.

U ko'chadagi g'ira-shiradan qo'rqib uyga chopib kirdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 130-bet)

Mazkur misolda taqlid so'z otlashgan, birlik va chiqish kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimadan? so'rog'iga javob bo'lib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

To'satdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning gumbur-qumburi eshitildi. (4-sinf "O'qish kitobi" 128-bet)

Bu misolda taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Tepalik yonidan chumchuqlarning chug'ur-chug'uri eshilib turdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 133-bet)

Ushbu misolda taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Tashqaridagi yomg'irning shitir-shitiri Erkinjonni junjiktirib qo'ydi. (4-sinf "O'qish kitobi" 133-bet)

Bu misolda ham taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Shu payt eshikning taqur-tuquri Erkinjonni cho'chitib yubordi. (4-sinf "O'qish kitobi" 140-bet)

Bu misolda ham taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Sal o'tmay chopib kelayotgan otning dupur-dupuri eshilib qoldi. (4-sinf "O'qish kitobi" 155-bet)

Ushbu misolda ham taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Menga qarab kelishsa, shitiri eshitiladi-ku, deyman. (4-sinf "O'qish kitobi" 152-bet)

Ushbu misolda taqlid so'z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo'shimchalarini olgan. Nimasi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Oyoq ostida xazonlarning shitir-shitirini hamma eshitdi. (3-sinf “O‘qish kitobi” 58-bet)

Mazkur misolda taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs birlik va tushum kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimasini? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

Shu payt uzoqdan chopib kelayotgan ot dupuri eshitildi. (4-sinf “O‘qish kitobi” 79-bet)

Ushbu misolda taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimasi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Ozod bilan Nosirning ko‘nglini vahima xuddi oqshom q‘ira-shirasi kabi bosib kela boshladi. (4-sinf “O‘qish kitobi” 222-bet)

Ushbu misolda taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimasi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Kunlarning birida u suvning jimir-jimiriqa qarab o‘tirgan edi. (4-sinf “O‘qish kitobi” 205-bet)

Bu misolda taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs birlik va jo‘nalish kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

Ko‘chada bolalarning qiy-chuvi ko‘tarilib, boboning gaplari eshitilmadi.

(4-sinf “O‘qish kitobi” 175-bet)

Mazkur misolda taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs birlik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimasi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Allaqanday qush poloponlarining qiy-chuvlari qulog‘iga chalindi. (2-sinf “O‘qish kitobi” 129-bet)

Mazkur misolda tovushga taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs ko‘plik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nimalari? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Ko‘chada o‘tlarning shitir-shitiri va novdalarning shivir-shiviri eshitilardi. (4-sinf “O‘qish kitobi” 183-bet)

Mazkur misolda tovushga taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs ko‘plik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

Ko‘chada o‘tlarning shitir-shitiri va novdalarning shivir-shiviri eshitilardi. (4-sinf “O‘qish kitobi” 183-bet)

Bunda ham taqlid so‘z otlashgan, 3-shaxs ko‘plik va bosh kelishik qo‘shimchalarini olgan. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda ega vazifasini bajargan.

UMUMIY XULOSALAR

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. O'zbek tilidagi otlashuv hodisasi malum turkumdagi so'zlarning ot turkumi o'rnida kelib, uning vazifasini bajarib kelishi orqali yuz beradigan hodisa hisoblanadi.
2. Otlashuv hodisasi yuz bergan so'zlar tarkibiga egalik, kelishik yoki ko'plik qo'shimchalarini oladi.
3. Mustaqil so'z turkumlaridan sifat otlashib kelganda u aniqlab kelgan ot tushib qoladi va sifat otning manosini anglatib, uning sintaktik vazifasini bajaradi. Yana bunda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi va ot-kesim vazifasida keladi.
4. Sonlarning ma'no turlaridan sanoq sonlar va miqdor sonlarning ham otlashganda egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qilishini ko'rib chiqdik. Gapda ega, qaratqich-aniqlovchi va to'ldiruvchi vazifalarini bajaradi.
5. Olmoshlarning ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik kabi mano turlari otlashib keladi. Ular otlashib kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Otlashgan olmoshlar gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi.
6. Fel shakllaridan sifatdash otlashish xususiyatiga ega. U otlashganda gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi vazifalarini bajaradi.
7. So'z turkumlaridan ravish ham otlashish xususiyatiga egadir. Bunda ular otlarga xos so'roqlarga javob bo'ladi, otning sintaktik vazifasini bajaradi va egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi.
8. Alohida so'z turkumlaridan modal so'zlar otlashganda otga xos egalik kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi, otning so'roqlariga javob bo'ladi va uning gapdaga sintaktik vazifasini bajaradi.
9. Undov so'zlar ham otlashib egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Ular otlashib gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi va ot-kesim vazifasini bajaradi.
10. Taqlid so'zlar otlashib kelganda u aniqlab kelgan ot tushib qoladi va uning sintaktik vazifasini bajaradi.
11. Yordamchi so'z turkumlaridan ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning otlashish xususiyati biz ko'rib o'tgan darslik va qo'llanmalarda uchramadi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A. Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent, “Manaviyat” nashriyoti, 2011-yil.
2. I.A. Karimov. “Yuksak manaviyat- yengilmas kuch” . Toshkent, “Manaviyat” nashriyoti, 2008-yil.
3. I.A. Karimov. “Barkamol avlod orzusi” . Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 1999-yil.
4. I.A. Karimov “Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ” . Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 1997-yil.
5. X. Komilova, Sh. Shoabdurahmonov, X. G‘oziyev. “Hozirgi zamon o‘zbek tili” Toshkent. Faxri Kamol tahriri 1957-yil.
6. Maqsuda Sodiqova. “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” Toshkent. “Fan” nashriyoti 1974-yil.
7. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (Leksiologiya, fonetika, morfologiya). Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1975-yil.
8. M.Mirzaev, R.Usmonov, R.Rasulov “O‘zbek tili” Toshkent 1978-yil.
9. Sh. Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A. Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti 1980-yil.
10. R.Ikromova, A.Azizova, D.Muhamedova. “O‘zbek tili” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti, 1983-yil.
11. M.Asqarova, R.Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D.Muhamedova. “O‘zbek tili praktikumi” Toshkent “Iqtisod-moliya”, 2006-yil.
12. M.Hamroev, D.Muhamedova, D. Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. “Ona tili” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti, 2007-yil.
13. I.Azimov, M. Saparniyozova. “Ona tilidan maruzalar va testlar majmuasi” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008-yil.
14. Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma” Toshkent “Fan” nashriyoti, 2008-yil.

15. Qalandar Sapayev. "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 2009-yil.
16. M.Hamroyev. " O'zbek tilidan maruzalar" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 2011-yil.
17. Maktab darsliklaridan N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D. Nabiyeva 6-sinf " Ona tili" Toshkent "Tasvir" nashriyot uyi 2011-yil.